

Marifat

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy nashr

Xalq ziyolilari gazetasi // 1931-yildan chiqa boshlagan //

-mail: info@marifat.uz // 2026-yil 15-iyul chorshanba №28(9613)

USTAMA US TIDA O'YLAR

3-bet

Muallim kitob o'qimay qo'ysa...

3-bet



Bu yil ish faoliyatimga 38 yil to'ldi. O'qituvchilik og'ir kasb, chunki har xil oila va har xil o'quvchi bilan ishlaymiz. Hamma ham bu kasbning og'irligini his qilmaydi. Ota-onasiga dardini ayta olmagan bola o'qituvchisiga yuragini ochishi mumkin. Bu yil o'quvchilarim 11-sinfni tugatishdi. Men esa ularni sog'inyapman.

Fotima MO'MINOVA

Attestatsiya baribir bo'lishi kerak. Sababi, u fan bo'yicha bilimingizni tekshiradi. Aytaylik, men attestatsiyada o'z fanim bo'yicha 30 ball olsam, bu o'zimning fanimni yetarli darajada bilmasligimni ko'rsatadi. Fanni chuqur bilmasdan bolaga nimani o'rgata olaman?

Yulduz MATMURODOVA

O'qituvchi
nimani
o'ylaydi?



Agar bolaning qalbiga nohaq ozor berib qo'ysak, bolalar oldida samimiylik bilan ularni bag'rimizga bosib uzr so'rashimiz kerak, deb o'ylayman. Chunki bu ularga ibrat bo'ladi hamda ruhiyatida mardlik, vijdonan aybini tan olish va odamiylik nuqtayi nazaridan uzr so'rash madaniyati shakllanadi. 48 yil davomida shu kasbda ishlab, nohaq bo'lgan paytlarimda shunday yo'l tutganman. Natijada hurmatim kamaymagan, aksincha, oshgan. O'quvchini va kasbingizni sevsangiz, har bir bolani alohida, qiziqarli kitobdek o'qiy olasiz, aziz ustozlar!

Dilshod ESHMATOV



Ta'kid

Muhit girdobida bir somon parcha

*Muhit kuchlik ekan,
egdim bo'ynimni...
Oqishning yo'liga
soldim kuyimni.*

Abdulhamid Cho'lpon

Dunyoga kelgan har bir go'dak Yaratganning bergan eng ulug' omonati va oilalar quvonchidir. Ammo farzandimiz sog'-salomat voyaga yetib, maktabni bitirgach, jamiyatda o'z o'rnini topa oladimi? U shunchaki bir inson bo'lib yashaydimi yoki el-yurtga nafi tegadigan haqiqiy SHAXS bo'lib shakllanadimi?

Muhit girdobiga qarshi turish mashaqqatini shoirona ifodalab bergan jadid bobomiz haq edi. Pedagogikada qiziq bir haqiqat bor: odam inson bo'lib tug'iladi, lekin faqat to'g'ri tarbiya va sog'lom muhit orqali shaxsga aylanadi. Xo'sh, bu jarayonda nimalar muhim va biz – ota-onalar, ustozlar qayerda xatoga yo'l qo'yayapmiz?

Ba'zida "otasiga tortgan-da, fe'li og'ir" yoki "onasi ham shunaqa chevar edi, qiziga ham o'tibdi" deb qo'yamiz. To'g'ri, bola ota-onasidan ko'z va soch rangini, bo'y-bastini va ma'lum bir iqtidor kurtaklarini meros qilib oladi. Lekin bu layoqatlar o'z-o'zidan rivojlanib qolmaydi. Agar bolada rasm chizishga tug'ma iste'dod bo'lsa-yu, biz uning qo'liga qalam va qog'oz bermasak, to'garaklarga yetaklamasak, bu qobiliyat vaqt o'tishi bilan so'nib, yo'q bo'lib ketadi.

Abu Ali ibn Sino "Bola tug'ilgach, avvalo, ota unga yaxshi nom qo'yishi, so'ngra esa uni yaxshilab tarbiya qilishi kerak... Agar oilada tarbiyaning yaxshi usullaridan foydalanilsa, oila baxtli bo'ladi", degan.

Pedagogikada "inson" va "shaxs" tushunchalari bir-biridan jiddiy farq qiladi. Inson bo'lib tug'ilish bu – biologik jarayon. Ammo shaxs bo'lish butunlay boshqa hodisa. Shaxs tushunchasi insonning boshqa odamlar bilan muomalada bo'lishi, jamiyatda munosabat o'rnatishi natijasida shakllanib boradigan ijtimoiy sifatlarini bildiradi. Bolaning psixik xususiyatlari – aql-idroki, diqqati va maqsadli harakatlari, rivojlanishi, hayotda o'z o'rnini topa olishi, Vatani va xalqining ravnaqi yo'lida og'ishmay, e'tiqod va iymon bilan xizmat qilishi insonni shaxs darajasiga ko'taradi.

Demak, bunday sifatlarni ro'yobga chiqaradigan kuch, oila baxtining kaliti – farzandga beriladigan e'tibor va to'g'ri tarbiya ekani isbot talab qilmas haqiqat.

Zamonaviy pedagogikada inson rivojlanishini uch asosiy omil – irsiyat, muhit va tarbiyaning zanjirsimon bog'liqligi ta'minlaydi, deb ko'rildi. Bola faqat biz unga "buni qil, uni qilma" deb aytgan nasihatlarimiz bilan ulg'aymaydi. U ko'proq bizning kundalik hayotimizni, oiladagi muhitni kuzatib ulg'ayadi. Xalqimizda "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan naql bejiz aytilmagan. Abu Nasr Forobiy inson kamolotida ta'lim-tarbiyaning muhimligini ta'kidlab: "Munosib inson" bo'lish uchun odamda ikki imkoniyat – ta'lim va tarbiya olish imkoniyati bor. Ta'lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi, tarbiya esa kishilar bilan muloqotda axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yo'ldir", deydi.

Agar oilada o'zaro hurmat, ota-ona o'rtasida shirin muomala bo'lsa, bola ham xushmuomala bo'lib o'sadi. Aksincha, uyda doim janjal, tele-



fonga tikilib o'tirishsa, bolada ma'naviyat qanday shakllanishi mumkin?

Shuningdek, bolaga tabiiy iqlim va yashash sharoiti ham ta'sir qiladi. Tabiiy iqlim deganimiz geografik muhit, tabiat sharoiti va boylikni ifodalaydi. Bu so'zsiz insonning hayot tarziga, xarakteriga va mehnat faoliyatiga ta'sir etadi. Masalan, tropik mintaqada hayot kechirayotgan insonlarning kundalik turmushi uzoq shimoldagi odamlarning hayot tarzidan farqlanishi tabiiy.

Lekin eng katta xavf va ijtimoiy muhit – ko'chadir. Oiladan tashqaridagi muhit bolani hayotga va mehnatga tayyorlaydi, unga kerakli tajriba va bilimlarni beradi. Ijtimoiy aloqasiz odam hech qachon chinakam inson bo'la olmaydi. Bu muhit muntazam bo'lmasa-da, doim turlicha bo'lgan va tinimsiz o'zgarib boradi. Ya'ni nazoratsiz. Ko'cha bolani ham yaxshi, ham yomon yo'lga boshlashi mumkin. Shu bois, bola hayotida maktab va tizimli tarbiya bosh rolni o'ynaydi. Maktabda bola nafaqat fan asoslarini o'rganadi va bilim oladi, balki unda ilmiy dunyoqarash, oqni qoradan ajratish ko'nikmasi shakllanadi. Maktab tarbiyasining eng afzal tomoni shundaki, u bolaning tug'ma kamchiliklarini ham to'g'iray oladi, ko'chaning salbiy ta'siriga qarshi bolada kuchli ma'naviy qalqon (immunitet) hosil qiladi.

Endi o'zimizga haqqoniy bir savol beraylik: nima uchun bir sinfda o'qigan, bitta ustozdan ta'lim olgan, oilaviy sharoiti ham o'xshash bo'lgan ikki bolaning biri kelajakda katta yutuqlarga erishadi-yu, ikkinchisi hayotda qoqilib yuradi?

Buning siri – insonning ichki faolligi va intilishida. Eng mukammal maktab, eng zo'r ustoz va boy-badavlat oila ham, agar bolaning o'zida harakat, xohish va maqsad bo'lmasa, uni shaxs qila olmaydi. Inson faqat maqsadli mehnat va harakat jarayonidagina rivojlanadi. Harakatdan to'xtasa rivojlanish yo'q!

Agar o'qituvchi va ota-ona bolaning oldiga aniq va go'zal maqsadlarni qo'ya olsa, bola esa bu maqsadga erishish uchun o'zi chin dildan harakat qilsa, kutilgan natija albatta keladi.

Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Kompyuterlar, ijtimoiy tarmoqlar yoshlarimiz ongini har daqiqada zaharlashi yoki aksincha, boyitishi mumkin. Bunday vaziyatda bolamizni o'z holiga tashlab qo'yishga umuman haqqimiz yo'q.

O'qituvchi uchun ham bolaning bo'sh vaqtida kimlar bilan yurgani, nimalar bilan mashg'ul bo'layotgani ahamiyatsiz bo'lmasligi kerak. Rahbarlik qilinmagan, nazoratsiz qolgan bo'sh vaqt bolani ko'chaning salbiy girdobiga tortib ketadi.

Abror TO'RABOYEV,
Parkent tumanidagi
5-maktab direktorining ma'naviy-ma'rifiy
ishlar bo'yicha o'rinbosari

Mulohaza



Minglab yoshlarimiz ingliz tili va boshqa xorijiy tillardan C1, hatto C2 darajadagi xalqaro sertifikatlarni qo'lga kiritishmoqda. Bu – millatimizning intellektual salohiyati nechog'lik yuksakligidan dalolat. Biroq vaqt bir joyda deysinib turmaydi, global iqtisodiyot va xalqaro munosabatlar shiddat bilan o'zgarmoqda. Bugun dunyo miqyosida shunday bir tendensiya bo'y ko'rsatyaptiki, yaqin kelajakda xitoy tili hatto ingliz tilidan ham muhimroq va foydaliroq muloqot vositasiga aylanishi mumkin.

Nega yangi avlod xitoy tilini o'rganishi shart?

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-sentabrdagi "Texnikumlarda xorijiy ta'lim tashkilotlari ishtirokida qo'shma ta'lim dasturlarini joriy qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori bilan texnikumlarda xorijiy ta'lim tashkilotlari ishtirokida qo'shma dasturlarning joriy etilishi yoshlar uchun jahon andozalari sari eshik ochdi. Xo'sh, ushbu ochiq eshiklardan yanada samaraliroq kirish va kelajak poydevorini mustahkam qurish uchun yangi avlod qaysi tilga ko'proq e'tibor qaratiishi lozim? Javob bitta: xitoy tili.

Vizasiz dunyo va ulkan imkoniyatlar

Ingliz tili dunyoda o'z mavqeyini ma'lum muddat saqlab qolishi mumkin, biroq bugun ingliz tilli davlatlarga borish, u yerda o'qish yoki ishlash yosh mutaxassislar va professionallar uchun juda katta to'siqlarga to'la. Hattoki eng yuqori C1 va C2 sertifikatiga ega bo'lgan mutaxassislar ham oylar davomida vizadan rad javobini olishmoqda, buning ustiga viza uchun to'lanadigan ulkan badallar va o'n minglab dollarlik universitet kontrakt pullari aksariyat oilalar yelkasiga og'irlik qilmoqda.

Xitoy esa bugun butun dunyoga, xususan, O'zbekistonga eshiklarini keng ochdi. Hozir yurtdoshlarimiz Xitoyga sayyoh sifatida hech qanday vizasiz, ortiqcha xarajat va hujjatbozliklarsiz safar qilish imkoniyatiga ega. Ta'lim masalasida ham vaziyat mutlaq ijobiy tomonga o'zgaragan: agar yangi avlod vakillari xitoy tilidan B2 yoki C1 darajasiga ega bo'lishsa, ular ushbu mamlakatning eng nufuzli universitetlarida bepul o'qish, grantlar yutish va yuqori daromadli ishlarga joylashish imkonini qo'lga kiritadi. Xitoy universitetlari taqdim etayotgan ta'lim sifati va texnologik infratuzilma ko'plab g'arb davlatlaridagidan ancha ilgari ketdi.

Ikki karra ustunlik: ingliz tili va xitoy tili parallelizmi

Fikrlarim ingliz tilini o'rganishdan voz kechish kerakligini anglatmaydi. Agar mkoniyat bo'lsa, har ikkala tilni ham mukammal egalash yoshlarimizga ikki hissa ustunlik beradi. Biroq bugungi va yaqin kelajakdagi real vaziyat shuni ko'rsatmoqdaki, xitoy tilini o'rganish, ayniqsa, O'zbekiston yoshlari uchun ingliz tilini o'rganish bilan bir xil, balki undan ham muhimroq strategik ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Global iqtisodiy markazlarning siljishi va mintaqamizdagi yangi loyihalar bu tilni shunchaki chet tili emas, balki muvaffaqiyatning eng asosiy kalitiga aylantirmoqda.

15 yoshgacha bo'lgan yoshlar uchun eng to'g'ri sarmoya

Agar oilangizda yoki atrofingizda 15 yoshdan kichik bo'lgan o'smirlar bo'lsa, bugundan boshlab ularning xitoy tilini o'rganishlari uchun sharoit yaratish zarur. Bu yangi avlodning kelajagiga tikilgan eng foydali sarmoyadir. Bolalik va o'smirlik davrida til o'zlashtirish qobiliyati eng yuqori nuqtada bo'ladi va bu yoshda Xitoy tilini o'rganish kelajakda ularga dunyo darvozalari osongina ochilishini ta'minlaydi.

Bugun O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi iqtisodiy, madaniy va savdo aloqalari o'zining oltin davrini yashamoqda. Yurtimizga milliardlab dollarlik investitsiyalar kiritayotgan va jadal o'sayotgan yangi kompaniyalar, innovatsion fabrikalar va startaplar barpo etilmoqda. Ushbu yirik korxonalarga esa xalqaro standartlarni tushunadigan, eng muhimi, xitoy tilida erkin muloqot qila oladigan mahalliy mutaxassislar kerak.

Sarvar UMIROV,

TDYU Xorijiy tillar sho'basi katta o'qituvchisi



O'qituvchi minbari

USTAMA USTIDA O'YLAR



Pedagog mehnatini munosib rag'batlantirish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir. Ta'kidlash kerakki, so'nggi yillarda o'qituvchilarga ustama tayinlash tizimi yanada takomillashtirildi, biroq ayrim mezonlar qayta ko'rib chiqilishga muhtoj.

Sababi, bugun ustama tayinlash jarayonida qatnashib andak ko'nglim cho'kdi. Maktab rahbarlari, komissiya a'zolariga sira e'tirozim yo'q. Albatta, ular nizom asosida qonuniy ball qo'yishdi, haqqoniy ustama belgilashdi. Lekin mening ijodiy qobiliyatim, o'qish va o'qitish samaradorligini oshirishga qo'shgan hissam-chi? Mehnatlarim inobatga olinmadi va bu borada haqli e'tirozlarim bor... Shundan so'ng, amaldagi mezonlarda o'qituvchining ayrim faoliyat yo'nalishlari yetarlicha aks etmayotgani haqida o'ylab qoldim. Nima deb o'ylaysiz, respublikada men kabi hafsalasi pir bo'lgan o'qituvchilar kammi?

Ijod – yangi g'oya, usul va yechim yaratish demakdir. Ayniqsa, ta'lim sohasida ijodkor o'qituvchining o'rni alohida. Bunday pedagoglar:

- darslarni qiziqarli va samarali tashkil etadi;
- o'quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi;
- iste'dodlarni kashf etadi;
- zamonaviy metodlarni amaliyotga tatbiq etadi;
- ta'lim sifati va jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadi.

Mening ham ijodkor o'qituvchi sifatida hikoya va maqolalarim respublika gazeta-jurnallarida muntazam e'lon qilinib, ayrim hikoyalarim to'plamlarga kiritilib kelinayotgani, o'quvchi va o'qituvchilarning iliq fikrlariga sazovor bo'layotganimdan xursand edim. Biroq ustama tayinlash jarayonida bu mehnatlarim uchun bir ball ham berilmadi. Bu mantiqan to'g'rimi? **O'quvchingizning ijodi yutuq sifatida baholanadi, ammo o'qituvchining ijodiy faoliyati e'tiborga olinmaydi.**

– Xo'p, tushundik. Demak, bularning bari hech qanday ahamiyatga ega emas ekan, – deb yubordim beixtiyor.

Komissiya a'zolaridan biri:

– Kechirasiz, ustoz, masalan, siz uyda tomorqada yoki ro'zg'or ishlari bilan shug'ullansangiz, buning uchun davlatdan maoshingizni oshirishni talab qilmaysiz-ku. Bu ham shunga o'xshash holat.

Men esa bunga qo'shila olmadim.

– Yo'q, mutlaqo unday emas. Ijodkor o'qituvchining faoliyati faqat uning shaxsiy ishi emas. Uning ijodi ta'lim sifati, o'quvchilar dunyoqarashi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Shunday

ekan, bu mehnat qandaydir mezon asosida rag'batlantirilishi kerak.

O'ylab qarasam, avval ijodiy ishlar uchun ham ball berilar va men ham nizomdagi ushbu band asosida ustama olganman. Keyinchalik esa u bekor qilindi. Sababi, “soxta ijodkorlar” ko'paydi. Pul evaziga maqola chiqarish, bo'lar-bo'lmas ishlarni ijod mahsuli sifatida ko'rsatish holatlari uchradi. Hatto umrida qalam tutmagan ayrim o'qituvchilar ham “ijodkor” sifatida e'tirof etildi. Balki ana shunday suiiste'molliklar tufayli bu mezon olib tashlandi. Ammo ayrimlarning nohalol yo'li sabab haqiqiy ijodkorlarning mehnati ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak.

Taklifim shuki, haqiqiy ijodkor pedagoglarni aniqlashning shaffof mezonlari ishlab chiqilsin. Zarurat bo'lsa, “Ijodkor o'qituvchi” uyushmasi yoki ekspertlar kengashi tashkil etilib, haqiqiy ijodkorlar saralanishi, iste'dodli pedagoglarni qo'llab-quvvatlash tizimi yo'lga qo'yilishi maqsadga muvofiq bo'lardi.

Yana bir e'tirozim – yetakchi o'qituvchilar faoliyati ustama mezonlarida yetarlicha aks etmasligidir. Chunki yetakchi o'qituvchi mas'uliyatli, bilimli, tashabbuskor, faol va fidoyi pedagog bo'lib, u nafaqat o'z fanini o'qitadi, balki yosh hamkasblariga ustozlik qiladi, metodik yordam ko'rsatadi, ilg'or tajribalarni ommalashtiradi, ta'lim sifa-

tini oshirishga xizmat qiladi. Maktabda ijodiy va hamkorlik muhitini shakllantirishda ham uning hissasi katta. Shunday ekan, bu faoliyat ham ustama mezonlarida munosib baholanishi kerak emasmi?

Shaxsan o'zim sog'lig'im yomonlashgan, qon bosimim keskin ko'tarilgan paytlarda ham 20 dan ortiq o'qituvchi oldida mashg'ulotlar o'tganman. Ba'zan ayrim o'qituvchilarning mas'uliyatsizligi yoki topshiriqlarga loqaydligi tufayli qo'shimcha yukni ko'tarishga ham to'g'ri kelgan. Bu minnat emas. Bu oddiy haqiqat va amaliyotdagi holat. Afsuski, ba'zan o'ta mas'uliyatli va jonkuyar bo'lishning o'zi ham insonning zarariga ishlaydi. Haqiqatan ham nomigagina yetakchi bo'lib, faqat hisobot uchungina faoliyat ko'rsatayotganlar ham uchrab turadi. Xalqimiz aytganidek, guruch kurmaksiz bo'lmaydi.

So'nggi savol: bilimziki, ustamaga oliy malaka toifasi uchun ball beriladi. Bu to'g'ri. **Ammo milliy sertifikat natijasi nima uchun ustama ballarida inobatga olinmaydi?** Axir u ham o'qituvchining bilim va malakasini tasdiqlovchi muhim ko'rsatkich-ku.

Hurmatli mutasaddilar va qadrli ustozlar! Bu masalalar yuzasidan sizning fikrlaringiz qanday? Ustama tayinlash tizimida yana qanday muammolarni ko'rayapsiz? Keling, bu borada ochiq fikr almashaylik, takliflarimizni bildirib, tizimni yanada takomillashtirish yo'lida birgalikda yechim izlaylik.

Salomat ESHIMBETOVA,
Beruniy tumanidagi
47-maktabning ona tili va adabiyot
o'qituvchisi

Og'riq

Muallim kitob o'qimay qo'ysa...



Taraqqiyparvar adib Cho'lpon: “Adabiyot yashasa – millat yashar. Adabiyoti o'lmag'on va adabiyotining taraqqiysiga chalishmagan va adiblar yetishdirmag'on millat oxiri bir kun hissiyotdan, o'ydin, fikrdan mahrum qolub, sekin-sekin inqiroz bo'lur. Muni inkor qilib bo'lmas”, deganda, avvalo, adabiyot muallimlarini ham nazarda tutmaganmi?!

Ba'zan maktab tadbirlari va ijodiy uchrashuvlarda ishtirok etib, adabiyot o'qituvchilarining bugungi adabiy jarayon bilan qanchalik tanishligi, qaysi yozuvchilarning asarlarini mutolaa qilayotgani bilan qiziqaman. Eshitgan javoblarim esa meni ko'p bora hayratga solgan. Albatta, barcha o'qituvchilarni nazarda tutmayapman. Fikrimcha, ularning anchagina qismi bugungi adabiy jarayondan bexabar, faqat darslik bilan cheklanib qolgandek taassurot uyg'otadi.

Hatto O'zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sulton va uning asarlarini bilmaydigan o'qituvchilar ham uchradi. Axir Isajon Sulton xalq yozuvchisi unvoniga erishguncha qancha zahmat chekdi, qanchadan-qancha asarlar yaratdi. Televideniye, matbuot va ijtimoiy tarmoqlarda muntazam chiqish qilib, o'z fikrlarini bildirib kelmoqda. Nahotki, bunday fidoyi ijodkorni adabiyot o'qituvchilari tanimasa?!



Tushunaman, kitob mutolaasi ko'ngil xohishi bilan bog'liq yumush. Albatta, hech kim birovni kitob o'qishga majburlay olmaydi. Aksincha, mutolaaga da'vat eta olamiz, xolos. Bu qanchalik zarurligini anglash uchun fransuz adibi va pedagogi Eduar Labulening: “Taraqqiyotning umumiy ko'lamida har bir xalqning o'rni o'sha xalq o'qiyotgan kitoblarning soni bilan belgilanadi”, degan fikriga tayanadigan bo'lsak, kitobning kelajak va taraqqiyotdagi o'rni naqadar muhimligini anglaymiz. Xo'sh, yoshlarga kitobni kim o'qitadi? Kim ularda mutolaaga qiziqish uyg'otadi?

O'zingiz o'ylang, davrimizning mashhur adiblari Ulug'bek Hamdam, Abduqayum Yo'ldosh, Sobir O'nar, Luqmon Bo'rixon kabi ijodkorlar asarlarini bilmay turib, qanday qilib adabiyotdan dars berish mumkin? Ulug'bek Hamdamning televideniyaedagi teran va o'tkir chiqishlarini boshqa soha vakillari ham qiziqib kuzatayotganiga guvoh bo'lganman. Nahotki, aynan shu sohaning va-

kili bo'lgan adabiyot o'qituvchilari ularni tinglamasa, bilmasa?!

O'qituvchilar muntazam malaka oshirish kurslarida o'qiydi, qisqa o'quv mashg'ulotlarida qatnashadi yoki attestatsiyaga tayyorlanadi. Ammo shu kabi mashg'ulotlarda bugungi adabiy jarayon, zamonaviy adabiyot va yangi asarlar haqida yetarlicha so'z yuritiladimi? Yoki qog'ozbozlik ularni mutlaqo band qilib qo'yganmi? Qachon darslikdan tashqari mutolaa qilishdan voz kechildi?

Yana bir gap, maktablarga “Yoshlik”, “Sharq yulduzi”, “Jahon adabiyoti” jurnallari yetib borishi ham so'roq ostida. Adabiyot o'qituvchisi bo'laturib, o'quvchilarni adabiyotga qiziqitira olmasak, bugungi adabiy jarayon bilan tanish bo'lmasak, qanday qilib mazmunli dars o'tamiz?

“Badiiy adabiyotsiz alohida bir inson ham, butun millat ham yuksala olmaydi. Adabiyot-u san'atdan yiroq odam faqat qorin tashvishini chekadigan yaratiqqa aylanadi. Intellekti yuksak, tuyg'ulari boy ulusgina qudratga ega bo'ladi, qadr topadi”, deydi adabiyotshunos olim Qozqoboy Yo'ldoshev.

Abdulla Qahhorning “Adabiyot muallimi” hikoyasini ko'pchiligingiz o'qigansiz. “Nafis adabiyot muallimi” o'rtoq Boqijon Baqoyev kabi o'quvchilarning “praktikum, minimum, maksimum; Detirding, Stending, Shelling, Mering, Demping...”, deb boshini qotirasizmi?! O'qimaganingizdan keyin yana nima ham deya olardingiz?

Ehtimol, savollarim ko'payib ketgandir. Ammo bu savollarga allaqachon javob topish va amaliy yechim izlash vaqti kelgan. Nima qilmoq kerak? Nima qilsak, adabiyot o'qituvchisi kitob va bugungi adabiy jarayon bilan yanada yaqinroq tanishadi? Bunga qanday yechim topamiz? Balki sohaga aloqador mutasaddilar ham bu masalaga jiddiy e'tibor qaratishlari kerakdir?

Ayting, aziz adabiyot muallimim, o'qimaslik va izlanmaslikka qanday sababingiz bor?!

Zulxumor RASHIDOVA,
Jomboy tumanidagi
7-IDUMning ona tili va adabiyoti o'qituvchisi



Ta'lim islohotlari

“5 T” tamoyili asosida ilmiy klasterlash: O‘zbekistonning yangi oliy ta’lim modeli



Innovatsion iqtisodiyotga o‘tish sharoitida oliy ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi global tendensiyaga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-aprelda qabul qilingan “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni mamlakatimizda ushbu integratsiyani tizimli va moliyaviy jihatdan mustahkamlovchi muhim hujjatdir. Unda “5 T” – ta’lim, tarbiya, tadqiqot, tijoratlashtirish va tizimli takomillashtirish tamoyili sohani boshqarishning yangi falsafasi sifatida joriy qilinmoqda. Farmonning markaziy elementi – “U 10” dasturi bo‘lib, unda 10 ta OTMga milliy tadqiqot universiteti maqomi berish uchun ilmiy klaster loyihalari tanlovi o‘tkaziladi.

“Ilmiy klaster” konsepsiyasi va uning global modellari – bu universitet, ilmiy tashkilot, ishlab chiqarish korxonalari va xorijiy hamkorlarning o‘zaro bog‘liq tizimi. Germaniyaning Fraunhofer institutlari, Buyuk Britaniyaning Catapult markazlari, Janubiy Koreyaning BK21 Plus dasturi bunga misol bo‘la oladi.

Farmonda belgilangan klasterda, asosan, milliy tadqiqot universitetlar, mahalliy oliy ta’lim tashkilotlari, nufuzli xorijiy universitetlar, ilmiy tashkilotlar ham qayd etilgan. Bu model Finlandiyaning “SHOK” (Strategic Centres for Science, Technology and Innovation) klasterlariga yaqin bo‘lib, unda davlat, universitet va biznes birgalikda moliyalashtirish va boshqaruvda ishtirok etadi.

“Klaster” tushunchasi dastlab iqtisodiyot sohasida qo‘llanilgan bo‘lsa, hozirgi kunda ta’lim tizimida ham keng tatbiq etilmoqda. Ta’lim klasteri deganda ta’lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot markazlari va ishlab chiqarish korxonalarining o‘zaro manfaatli hamkorligi asosida birlashuvi tushuniladi. Rus olimi S.Postnikov ta’rifiga ko‘ra, klaster – bu fan, ta’lim va ishlab chiqarishning yagona butunligini tashkil etuvchi murakkab tuzilmadir. Ta’lim klasteri esa – ta’lim muassasasi va ish beruvchilarning hamkorligi asosida korxona uchun mutaxassislarni bir necha bosqichli tayyorlashning ajralmas tizimi bo‘lib, bir qator afzalliklarga ega.

Ma’lumki, ta’lim klasterining global modellari Yevropa modeli – Portugaliya tajribasi muhim ahamiyatga ega. Portugaliyada maktab klasterlari tizimi keng rivojlangan. 2000-yilgi PISA natijalaridan so‘ng Portugaliyada ta’lim tizimini isloh qilish doirasida “maktab klasterlari” tarmog‘i joriy etilgan. Ushbu klasterlar bir nechta maktabni(maktabgacha ta’limdan o‘rta ta’limgacha) yagona ta’lim loyihasi va bitta direktor boshqaruvi ostida birlashtiradi. Odatda bitta klaster 5–10 ta maktabgacha ta’lim muassasasi va boshlang‘ich maktabni, quyi o‘rta maktab va bitta yuqori o‘rta maktabni o‘z ichiga oladi. Hozir Portugaliyada 811 ta klaster va klasterga kirmagan o‘rta maktablar faoliyat yuritmoqda.

Portugaliya modelining asosiy afzalliklari:

- ta’lim bosqichlari o‘rtasidagi o‘tishni yengillashtirish;

- o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlashning uzluksizligini ta’minlash;
- o‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi;
- ota-onalarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish.

AQSH modelida ta’lim klasterlari asosan STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) ta’limi va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish integratsiyasi sifatida namoyon bo‘ladi. Texas universiteti qoshidagi IC2 instituti tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha STEM ta’limi shahar va mintaqaviy rivojlanish bilan integratsiyalashganda, ta’lim, iqtisodiy rivojlanish va hayot sifati o‘rtasida “fazilatli doira” (virtuous cycle) vujudga keladi. Texasning San-Antonio shahrida kiberxavfsiz-

lik klasteri doirasida CyberPatriot dasturi amalga oshirilmoqda. Ushbu modellarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular ta’lim muassasalarini mahalliy sanoat klasterlari, davlat boshqaruvi organlari va notijorat tashkilotlar bilan birlashtiradi.

Buyuk Britaniyada ta’lim klasterlari asosan mahalliy hokimiyat organlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Britaniya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, maktablar o‘rtasidagi hamkorlikka erishish, agar u mahalliy va milliy hokimiyat organlari tomonidan qo‘llab-quvvatlansa va jaryonga jalb etilsa, osonroq bo‘ladi. Milliy hokimiyat organlari mintaqaviy va mahalliy hamkorlikni rag‘batlantirish va tashabbuslarni moliyalashtirish orqali yordam berishi mumkin.

Osiyo mamlakatlarida ta’lim klasterlari asosan iqtisodiy rivojlanish va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi. Tayvanda sanoat ingilobi 4.0 kontekstida STEM ta’limini rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosati amalga oshirilmoqda. Hindistonda esa AT klasterlari doirasida STEM ta’limi va iqtisodiy rivojlanish integratsiyasi yo‘lga qo‘yilgan. Qizig‘i shundaki, tadqiqotlar aniq “Sharqiy Osiyo ta’lim modeli” mavjud emasligini ko‘rsatadi. 59 ta ta’lim tizimini klaster tahlili asosida o‘rgangan holda aniqlandiki, yuqori natijali ta’lim tizimlari turli xil rejimlarga mansubdir. PISA testida eng yuqori natijalarni ko‘rsatgan uchta klaster –

Singapur(testga asoslangan javobgarlik), Finlandiya(o‘qituvchilar vakolatlari va ta’lim tengligi) va Niderlandiya(maktab tanlovi va raqobat) bir-biridan sezilarli farq qiladi. Ta’lim klasterlari ta’lim sifatiga quyidagi ijobiy ta’sirlarni ko‘rsatadi:

1. Uzviylik va uzluksizlikni ta’minlash. Klaster modeli ta’lim turlari (maktabgacha, maktab, o‘rta maxsus, oliy) o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytiradi. Ta’biyki, “tarbiyalanuvchi (MTT) – o‘quvchi (UM) – talaba (OTM) – o‘qituvchi – ta’lim muassasasi – iste’molchi” uzviylik va uzluksizlikni ta’minlaydi.

2. Resurslardan samarali foydalanish. Klaster doirasida bir nechta maktab o‘quv materiallari, jihozlar, kutubxonalar va laboratoriyalarni birgalikda ishlatish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

3. O‘qituvchilar malakasini oshirish. Tajribali o‘qituvchilar yosh kadrlarga metodik yordam ko‘rsatadi, o‘zaro tajriba almashish tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

4. Innovatsion faoliyatni rivojlantirish. Ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi natijasida innovatsion loyihalar ko‘payadi, ularning imkoniyatlari kengayadi.

5. Ta’limda raqobat muhitini shakllantirish. Klaster tarkibidagi muassasalar o‘rtasida sog‘lom raqobat ta’lim sifatini oshiruvchi omil sifatida xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’limda uzviylik va uzluksizlikni ta’minlash, ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini takomillashtirish, ta’limiy hamkorlik muammolariga innovatsion yechimlar ishlab chiqish lozimligini bir necha bor ta’kidlagan. Shu munosabat bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetida “Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri modeli” strategik ilmiy tadqiqot yo‘nalishi sifatida belgilangan.

O‘zbekiston sharoitida ta’lim klasterlarini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari:

- turkiy davlatlar bilan hamkorlikda yagona ilmiy-ta’lim klasterini shakllantirish;
- umumiy ta’lim standartlarini ishlab chiqish;
- qo‘shma o‘quv dasturlari va malaka oshirish tizimlarini yo‘lga qo‘yish;
- raqamli ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanishdan iborat.

Ta’lim klasteri konsepsiyasi ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasining samarali mexanizmi sifatida global miqyosda o‘zining ijobiy natijalarini ko‘rsatmoqda. Portugaliya, AQSH, Buyuk Britaniya, Afrika mamlakatlari va Lotin Amerikasi tajribalari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim klasterlari ta’lim sifatini oshirish, o‘qituvchilar malakasini rivojlantirish va ta’limning uzviyligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Nargiza DIYOROVA,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“O‘zbek va rus tillari” kafedrasida
katta o‘qituvchisi

O‘qituvchi kundaligidan

Menga bir yil kifoya bo‘ldi...

Bir yil oldin o‘qituvchilik kasbi haqida ko‘p narsa bilaman, deb o‘ylardim. Dars o‘tish, daftar tekshirish, baho qo‘yish... Nazarimda, o‘qituvchining vazifasi shulardan iborat edi.

Ammo oradan bir o‘quv yili o‘tdi. Endi esa bilaman: o‘qituvchilik kasbi tashqaridan ko‘ringandek emas ekan.

2025-2026-o‘quv yili faoliyatimning boshlanishi bo‘ldi. Birinchi dars, birinchi hayajon, birinchi xatolar, birinchi yutuqlar... Hammasi birin-ketin hayotimga kirib keldi. Sinf rahbari bo‘lganim esa bu kasbning yana bir, men ilgari bilmagan tomonlarini ochib berdi. Har kuni maktabga dars o‘tish uchun emas, balki o‘nlab bolalarning kayfiyati, tarbiyasi va kelajagi uchun javobgar inson sifatida borishni o‘rgandim. Har bir bolaning tabassumi ortida bir olam, sukuti ortida esa ba’zan aytilmagan dardlar yashirin bo‘lishini angladim.

O‘qituvchi bo‘lish – faqat kitobdagi mavzuni tushuntirish emas, ba’zan psixolog, ba’zan opa, ba’zan ona, ba’zan esa shunchaki tinglay oladigan inson bo‘lish ekan. Bu bir yil davomida shunday kunlar bo‘ldiki, uya juda charchab qaytdim. Lekin ertasi kuni yana o‘sha sinf eshigini quvonch bilan ochdim. Chunki kutayotgan nigohlar bor edi. O‘qituvchini ishiga emas, qalbiga bog‘laydigan ham aynan shu nigohlar ekan. Bu yil mukammal o‘qituvchi bo‘la olmadim, ammo kechagi o‘zimdan yaxshiroq bo‘lishga harakat qildim. Har bir xato menga tajriba, har bir muvaffaqiyat esa mas’uliyat yukladi.

Bugun kimdir mendan “Bir yil o‘qituvchilik sizga nimani o‘rgatdi?” deb so‘rasa javobim shul: bir insonni tarbiyalash kitob o‘qitishdan ancha qiyin ekan. Mehr hech qaysi metodik qo‘llanmada yozilmas ekan. Sabr esa o‘qituvchining eng katta quroli ekan. Bu hali yo‘lning boshlanishi. Oldinda yana ko‘p sinovlar, ko‘p izlanishlar kutmoqda. Lekin bir narsani aniq bilaman: shu bir yilning o‘zi bejiz bu kasbni tanlaganimni, balki taqdirimni tanlaganimni his qildirdi.

Habiba ALIYEVA,
Forish tumanidagi
15-maktab o‘qituvchisi

Qaror va ijro

MALAKALI KADRLAR – MUSTAHKAM POYDEVOR



Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 30-iyun kuni Olimpiya shaharchasida yoshlar bilan bo‘lib o‘tgan an’anaviy uchrashuvda navbatdagi Yoshlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zga chiqib, **“Bugungi kunning muvaffaqiyat formulasi, ertangi taraqqiyotning mustahkam zamini – uchta eng muhim ustunga tayanadi: bu – bilim, kasb va texnologiya”**, deb ta’kidlagan edi. Davlatimiz rahbari har yili 500 ming nafar o‘g‘il-qizning zamonaviy kasbga ega bo‘lishini ta’minlaydigan “Kelajak bilimlari ekotizimi”, “kasb vaucheri” tizimi, texnikumlarda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish hamda xalqaro kasb sertifikatlarini joriy etish kabi bir qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi.



Ushbu strategik yo‘nalish mamlakatimizda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan institutsional islohotlarda ham o‘z aksini topmoqda. Xususan, kasbiy malakalarni xalqaro andozalar asosida baholash va mutaxassislarining ko‘nikmalarini muntazam oshirib borish maqsadida tashkil etilgan Milliy texnik malakani baholash va malaka oshirish markazi (NTQTTC) faoliyati bunga yorqin misol bo‘la oladi.

Xalqaro hamkorlik asosida yaratilgan tizim

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 6-maydagi “Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) granti asosida Milliy texnik malakani baholash va malaka oshirish markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 267-qarori asosida tashkil etilgan Markaz faoliyati mamlakatda kasbiy malakalarni baholash tizimini xalqaro talablarga moslashtirish hamda malakali kadrlar tayyorlash sifatini yanada oshirishga qaratilgan.

Ish beruvchi bilan bitiruvchi o‘rtasidagi eng keng tarqalgan nizo – diplom bilan real ko‘nikma o‘rtasidagi tafovut. Nomzodning qo‘lida hujjat bor, biroq stanok oldida, elektr sxemasi ustida yoki payvandlash apparati bilan ishlashda uning malakasi qanchalik ekani hech qayerda tasdiqlanmagan. Aynan shu muammoni tizimli hal etish maqsadida Prezidentimizning 2024-yil 30-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 345-qarori bilan milliy malaka tizimini tubdan isloh qilish boshlab yuborildi, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 369-qarori esa bu

islohotning amaliy mexanizmlarini – Respublika kengashi, tarmoq kengashlari va malakani baholash markazlari faoliyatini tartibga soluvchi nizomlarni tasdiqladi. E’tiborlisi shundaki, bu ikki hujjat qog‘ozda qolib ketmagan: Milliy texnik malakani baholash va malaka oshirish markazi (NTQTTC) faoliyatini kuzatar ekanmiz, aslida butun mamlakat miqyosida endigina boshlanayotgan islohotning kichik, ammo ishlayotgan namunasini ko‘ramiz.

Ikki hujjat, bir mantiq

“O‘zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori mehnat bozori va ta’lim tizimini bog‘lovchi yagona vosita – milliy malakalar ramkasini joriy etdi. Bu ramka sakkiz bosqichli malaka darajalarini, har bir darajaga qo‘yiladigan bilim, ko‘nikma va mas’uliyat talablarini belgilaydi hamda Yevropa malakalar ramkasi bilan uyg‘unlashtirilgan. Boshqacha aytganda, endi “malaka” tushunchasi mavhum emas, u aniq o‘lchanadigan, tarmoq kengashlari tomonidan ish beruvchilar bilan birgalikda ishlab chiqiladigan kasbiy standartlarga tayanadi. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori esa bu g‘oyani amaliyotga joriy etadigan uchta muhim vositani – malakani baholash markazlari to‘g‘risidagi namunaviy nizom, ularni akkreditatsiyadan o‘tkazish tartibi va tarmoq kengashlari faoliyatining huquqiy asosini yaratdi. Natijada endi har qanday markaz o‘z xohishicha emas, balki yagona davlat standarti asosida imtihon o‘tkazishi, malaka sertifikati esa mamlakat bo‘ylab bir xil yuridik kuchga ega bo‘lishi kerak.

NTQTTC – kelajakdagi tizimning bugungi sinov maydoni

Mazkur me’yorlar hali umum-milliy miqyosda joriy etilmasdan oldin, NTQTTC 2022-yildan buyon uchta texnik yo‘nalishda – avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash, elektr va elektronika hamda payvandlash ishlari bo‘yicha aynan shunday modelni sinovdan o‘tkazib kelmoqda. Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) tomonidan 4 million AQSH dollari miqdorida moliyalashtirilayotgan loyiha doirasida Koreya Inson resurslarini rivojlantirish xizmati (HRDK) mutaxassislari bilan birgalikda kasb standartlari va baholash vositalari ishlab chiqilgani, 2025-yil 21-may kuni 251 nafar talabgor nazariy, so‘ngra amaliy sinov bosqichidan o‘tkazilgani, natijada 30 nafariga malaka sertifikati topshirilgani endi butun mamlakat bo‘ylab joriy etilishi kerak bo‘lgan tizimning kichik prototipidir. Boshqacha qilib aytganda, milliy malaka tizimi qanday ishlashi kerakligini nazariy jihatdan tasvirlagan 345-qaror qabul qilinishidan oldinroq, NTQTTC allaqachon amalda shu mantiq bo‘yicha ishlayotgan edi, bu esa Markaz tajribasini kelajakdagi umum-milliy tizim uchun tayyor namuna sifatida qarashga asos beradi.

Bu o‘xshashlik tasodifiy emas. 369-qarorga ko‘ra, malakani baholash markazlari kasbiy imtihonlarning amaliy qismini texnopark, korxona va ta’lim tashkilotlarining ishlab chiqarish bazalari, ustaxonalari va laboratoriyalaridan foydalangan holda tashkil etishi belgilangan va shu tamoyil NTQTTCning uch yo‘nalishdagi amaliy imtihonlarini hududiy kasbiy ko‘nikmalar mintaqaviy markazlari – Toshkent, Samarqand va Qashqadaryoda tashkil etish tajribasida allaqachon sinalgan.

Oldinda turgan vazifa: “sinov markazi”dan “akkreditatsiyalangan tizim”ga o‘tish

Endi NTQTTC oldida yangi bosqich turibdi. 369-qarorga muvofiq mamlakatdagi barcha malakani baholash markazlari Respublika kengashi tomonidan tasdiqlangan yagona reglament asosida akkreditatsiyadan o‘tishi shart bo‘ladi. Bu shuni anglatadiki, NTQTTCning hozirgi uch yo‘nalishdagi standartlari yaqin kelajakda milliy malakalar ramkasi va tegishli tarmoq kengashlari tomonidan tasdiqlangan kasbiy standartlar bilan rasman uyg‘unlashtirilishi, Markazning o‘zi esa mamlakat miqyosida yaratilayotgan yagona akkreditatsiya tizimining bir bo‘g‘ini sifatida qayta ro‘yxatdan o‘tishi kutilmoqda. Bu texnik jihatdan sodda jarayon emas, biroq aynan shu integratsiya orqali NTQTTC tomonidan berilgan sertifikat nafaqat mahalliy, balki milliy daraja va istiqbolda xalqaro miqyosda ham tan olinadigan hujjatga aylanadi.

Ikkinchi muhim yo‘nalish – raqamlashtirish. PQ-345-qarorda milliy malaka tizimining yagona raqamli platformasi ishga tushirilishi va vazirlik-idoralarning mavjud axborot tizimlariga integratsiya qilinishi belgilangan. Bu platforma orqali talabgor onlayn ariza topshirishi, imtihon natijalarini kuzatishi va hatto markaz qa-

rori ustidan apellyatsiya berishi mumkin bo‘ladi. NTQTTC uchun bu – 2026-yil noyabr oyida rejalashtirilgan navbatdagi payvandlash bo‘yicha malaka baholash imtihonini, shuningdek, kelgusida boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha kengaytirilishi mumkin bo‘lgan faoliyatini shu yagona raqamli infratuzilmaga ulash zaruratini anglatadi. Bu esa jarayonni ancha shaffof va nazoratga oson qiladi.

Uchinchi jihat – miqyos kengayishi. Milliy darajada 2026-yil 1-dekabr gacha 1800 taga yaqin kasb bo‘yicha standart ishlab chiqilishi rejalashtirilgani fonida NTQTTCning atigi uchta texnik yo‘nalish bilan cheklangan hozirgi faoliyat doirasi tabiiy ravishda kengayishi kutilmoqda. Markazning ustozlar va ishlab chiqarish ta’limi ustalarini KOREATECH kabi nufuzli xorijiy institutlar bilan hamkorlikda tayyorlash tajribasi, 2025-yil boshida 106 nafar, 2026-yil fevralida yana 30 nafar o‘qituvchining malaka oshirishi aynan shu kengayish uchun zarur bo‘ladigan “o‘qituvchilar zaxirasi”ni tayyorlash vazifasini bajarayotganini ko‘rsatadi. Boshqacha aytganda, Markaz nafaqat talabgorlarni, balki kelajakda boshqa hududiy markazlarda ishlaydigan mutaxassislarni ham tayyorlab bormoqda. Bu – uni oddiy imtihon markazidan “o‘qituvchi tayyorlovchi” institutsional bo‘g‘inga aylantirmoqda.

Nima uchun bu birlashuv muhim?

Agar bu ikki jarayon – yuqoridan boshlangan umummilliy islohot va NTQTTCning quyidan boshlab to‘plagan amaliy tajribasi uyg‘unlashsa, natija oddiy statistikadan ko‘ra ancha teran bo‘ladi. Birinchidan, mamlakat kadrlar tayyorlash tizimida uzoq yillar davomida mavjud bo‘lgan “diplom bor, ko‘nikma yo‘q” muammosi institutsional darajada bartaraf etiladi. Ikkinchidan, ish beruvchi endi nomzodni tanlashda tasodifga emas, standartlashtirilgan va akkreditatsiyadan o‘tgan malaka sertifikatiga tayanadi. Uchinchidan, texnik kasb egalari, jumladan, bugun avtomexanik, elektrik yoki payvandchi bo‘lib ishlayotgan minglab yoshlar uchun o‘z mahoratini rasman tasdiqlash, shu orqali ish haqi va martaba imkoniyatlarini oshirish yo‘li ochiladi.

Albatta, bu yo‘lda hal qilinishi kerak bo‘lgan vazifalar ham oz emas: akkreditatsiya talablariga moslashish, raqamli platformaga integratsiya, yangi yo‘nalishlar bo‘yicha standartlar ishlab chiqish va bularning barchasini belgilangan qat’iy muddatlarda amalga oshirish oson bo‘lmaydi. Ammo NTQTTC misolida ko‘rinib turibdiki, bu model nazariyada emas, amalda ham ishlayotgani – Prezidentimiz Yoshlar kuniga bag‘ishlangan marosimdagi nutqida ta’kidlagan “bilim, kasb va texnologiya” formulasining haqiqiy, o‘lchanadigan natijaga aylanayotganidan dalolat beradi. Kelgusi ikki-uch yil mobaynida aynan shunday “kichik, ammo ishlayotgan” modellarning umummilliy tizimga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi Yangi O‘zbekiston mehnat bozorining xalqaro raqobatbardoshligini belgilaydigan hal qiluvchi omilga aylanadi.

Bobomurod O‘TAYEV,
Milliy texnik malakani baholash va
malaka oshirish markazi
direktori o‘rinbosari



Pedagogdan pedagogga



Boshlang'ich sinflarda matematika ta'limi o'quvchilarning hisoblash ko'nikmalari, mantiqiy fikrlashi va matematik tafakkurini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Shu bois, matematika darslarini samarali tashkil etish hamda o'quvchilarning bilimlarini muntazam nazorat qilib borish zarur. Amaldagi boshlang'ich matematika dasturi ilg'or pedagogik tajribalar va xalqaro ta'lim standartlari asosida ishlab chiqilgan. Unda misollar yechish, jadvallarni to'ldirish, ifodalarning qiymatini topish hamda arifmetik amallarni puxta o'zlashtirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Quyidagi metodik tavsiya 3-sinf matematika fanidan nazorat ishlarini tashkil etish uchun mo'ljallangan. Unda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, rasmi topshiriqlar, jadval va xalqaro baholash mezonlariga mos mashqlardan foydalanilgan.

1-variant.

1. Masalani yeching. Dam olish kuni 3-sinf o'quvchilari istirohat bog'iga borishdi. 3-“A” sinfdan 30 nafar o'quvchi bordi. Bu 3-“B” sinf o'quvchilari sonidan 6 nafar kam. 3-“D” sinfdan esa 3-“A” va 3-“B” sinflardagi o'quvchilar jami sonining yarmicha o'quvchi qatnashdi. Jami necha nafar o'quvchi borganini aniqlang.

Sinflar	O'quvchilar soni		Jami
3-“A”	30 nafar	}	}
3-“B”	?, 6 nafar ko'p	}	
3-“D”	?, 2 baravar kam	}	

2. Hisoblang.

- 1 m 6 dm 2 cm + 3 m 8 dm 5 cm =
- 7 dm 5 cm 3 mm - 4 dm 2 cm 5 mm =
- 1 m 7 dm 3 cm + 2 m 8 dm 3 cm =
- 6 dm 7 cm 9 mm - 2 dm 6 cm 5 mm =

3. Tenglamani yeching.

1) $(80+) + x = 467$

2) $(398+83) - y = 220$

4. Ko'pburchaklarni topib bo'yang.**2-variant.**

1. Masalani yeching. Dam olish kuni 3-sinf o'quvchilari hayvonot bog'iga borishdi. 3-“A” sinfdan 35 nafar, bu 3-“B” sinfdan 8 nafar kam, 3-“D” sinfdan esa, ikkala sinfdagi o'quvchilar sonidan ikki baravar kam o'quvchi borgan bo'lsa, sayohatga hammasi bo'lib necha nafar o'quvchi borgan?

Sinflar	O'quvchilar soni		Jami
3-“A”	30 nafar	}	}
3-“B”	?, 6 nafar ko'p	}	
3-“D”	?, 2 baravar kam	}	

2. Hisoblang.

- 2 m 5 dm 6 cm + 1 m 8 dm 3 cm =
- 6 dm 4 cm 7 mm - 4 dm 5 cm 3 mm =
- 4 m 7 dm 3 cm + 1 m 5 dm 4 cm =
- 5 dm 6 cm 8 mm - 3 dm 9 cm 6 mm =

3. Tenglamani yeching.

1) $z - (420-73) = 134$

2) $b + (561-182) = 703$

4. Ko'pburchaklarni topib bo'yang.

(Nazorat ishi olish jarayonidan lavha).

2-nazorat ishi.**1-variant.**

1. Masalani yeching. Avtosalonida 135 ta Damas, ulardan 3 marta ko'p Spark mashinasi bor. Agar sotuvda 600 ta mashina bo'lsa, avtosalonida nechta Lasetti mashinasi bor?



Mashina	Soni	Jami
Damas	135 ta	}
Spark	?, 3 marta ko'p	
Lasetti	?	

NAZORAT ISHLARINI

(3-sinf, matematika)

2. Taqqoslang.

- 800200 ■ 82000
- 350000 ■ 53000
- 700300 ■ 7002000
- 50000 ■ 5 5000
- 20017 ■ 22000
- 500089 ■ 5300089

3. Hisoblang.

$760102 - (63000:70 + 5 \cdot 3546) + 65879 =$

4. Ekin maydoni to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, bo'yi 21 m, eni esa undan 3 marta uzun. Ekin maydoni yuzini toping?



$$S = a \cdot b$$

a – bo'yi
b – eni

2-variant.

1. Masalani yeching. Avtosalonida 150 ta Damas, ulardan 2 marta ko'p Spark mashinasi bor. Agar sotuvda 500 ta mashina bo'lsa, avtosalonida nechta Lasetti mashinasi bor?



Mashina	Soni	Jami
Damas	150 ta	}
Spark	?, 2 marta ko'p	
Lasetti	?	

2. Taqqoslang.

- 600300 ■ 63000
- 450000 ■ 43000
- 800200 ■ 8002000
- 60000 ■ 5 6000
- 50017 ■ 52000
- 400078 ■ 400078

3. Hisoblang.

$(5000-4500:90 \cdot 60) + 3267 - 2345 =$

4. Ekin maydoni to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, bo'yi 28 m, eni esa undan 2 marta uzun. Ekin maydoni yuzini toping?



$$S = a \cdot b$$

a – bo'yi
b – eni

3-nazorat ishi.**1-variant.****Test**

- Bo'linmaning javobini toping. $872:8$.
a) 19 b) 109 d) 94 e) 117
- Tomonlari 9 cm va 7 cm bo'lgan to'g'ri to'rtburchakning perimetrini toping.
a) 18 cm b) 63 cm d) 48 cm e) 32 cm
- Yig'indini toping: $2346 + 3875$.
a) 6221 b) 5111
d) 5621 e) 6121
- Ifodaning qiymatini toping. $(140:14+650):6 \cdot 3$.
a) 360 b) 380 d) 330 e) 310
- Noma'lum sonni toping.
 $x \cdot 29 = 334 + 362$

QANDAY TASHKIL ETASIZ?

- a) 24 b) 26 d) 15 e) 19

6. Salim 28 tadan 4 qator gul ko'chati ekdi. U qancha gul ko'chati ekkan?

- a) 7 b) 9
d) 92 e) 112

7. Misolni yeching. 5671-964.

- a) 5053 b) 4913
d) 4707 e) 5707

8. Yechimini toping: $26 \cdot 38$.

- a) 808 b) 988 d) 782 e) 627

9. To'g'ri javobni toping. $3 \cdot 279$.

- a) 847 b) 928 d) 837 e) 617

10. Yuzi 56 cm^2 , bo'yi 8 cm bo'lgan to'g'ri to'rtburchakning eni necha santimetr bo'ladi?

- a) 7 cm b) 8 cm d) 9 cm e) 6 cm

T/r	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Savollar										
Javoblar										

2-variant

Test

1. To'g'ri javobni toping. $325:13$.

- a) 22 b) 25 d) 31 e) 18

2. 885 dan 5 marta kichik bo'lgan sonni toping.

- a) 125 b) 115 d) 27 e) 177

3. Tomonlari 60 cm bo'lgan kvadratning yuzini toping.

- a) 240 cm^2 b) 200 cm^2
d) 260 cm^2 e) 360 cm^2

4. 4 sutkada necha soat bor?

- a) 90 b) 96 d) 92 e) 160

5. To'g'ri belgini qo'ying. 2374 2368.

- a) > b) < d) = e) bilmayman

6. Noma'lum sonni toping. $143 \cdot 6 = 429 + x$.

- a) 429 b) 475 d) 1287 e) 1163

7. Ifodaning qiymatini toping. $147 + 59 \cdot 10 - 124$.

- a) 625 b) 613 d) 724 e) 642

8. Yig'indini toping. $4794 + 3789$.

- a) 7543 b) 8463
d) 8583 e) 7583

9. To'g'ri to'rtburchakning bo'yi 120 m, eni undan 40 m qisqa. To'rtburchakning perimetrini toping.

- a) 400 m b) 360 m
d) 560 m e) 240 m

10. Bo'linmani toping. $7926:3$.

- a) 8869 b) 2642 d) 5470

T/r	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Savollar										
Javoblar										

4-nazorat ishi

1-variant

Yozma ish

1. Hisoblang.

yuzl.4 o'nl. 1 birl+5 yuzl 2 o'nl 0 birl=
yuzl.0 o'nl. 7 birl+2 yuzl 5 o'nl 0 birl=
yuzl.3 o'nl. 5 birl+1 yuzl 3 o'nl 2 birl=

2. Masalani yeching. Issiqxonadan eksport uchun 360 kg limon 6 kg.dan, 246 kg mandarin 2 kg.dan qilib yashiklarga joylandi. Bir yashik narxi 1000 so'm bo'lsa, barcha yashiklar uchun qancha pul sarflangan?

360 kg



6 kg.dan
x ta yashik

246 kg



2 kg.dan
x ta yashik

1 ta yashik – 1000 so'm barcha yashik – x so'm

3. Boshqotirmaning yeching.



2-variant

Yozma ish

1. Hisoblang.

4 yuzl.3 o'nl. 1 birl+5 yuzl 3 o'nl 0 birl=
5 yuzl.0 o'nl. 8 birl+4 yuzl 5 o'nl 0 birl=
7 yuzl.4 o'nl. 5 birl+2 yuzl 5 o'nl 2 birl=

2. Masalani yeching. Issiqxonadan eksport uchun 540 kg limon 5 kg dan, 342 kg mandarin 3 kg dan qilib yashiklarga joylandi. Bitta yashik narxi 1000 so'm bo'lsa, barcha yashiklar uchun qancha pul sarflangan?

540 kg



5 kg.dan
x ta yashik


342 kg



3 kg.dan
x ta yashik

1 ta yashik – 1000 so'm; barcha yashik – x so'm

3. Boshqotirmaning yeching.



Qo'rg'ontepa tumanidagi
17-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Shodona OLIMOVAning
viloyat miqyosida ommalashtirilgan
"3-sinf matematika fani uchun nazorat
ishi to'plami" metodik qo'llanmasidan olindi.

O'qituvchiga yordam



Boshlang'ich ta'lim tizimida matematika fanini o'qitish o'quvchilarning intellektual rivojlanishida muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, "Tenglamalar" mavzusi o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, muammoli vaziyatlarni hal etish va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tenglama tushunchasi boshlang'ich sinflarda matematikaning asosiy bo'limlaridan biri sifatida keyingi bosqichlarda algebra fanini o'zlashtirish uchun mustahkam poydevor yaratadi. Bugungi kunda ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi bitiruvchilardan nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog'lashni talab etmoqda. Shu sabab tenglamalarni o'qitishda nafaqat qoidalarini yodlatish, balki ularning mazmunini tushuntirish va kundalik hayotdagi qo'llanilishiga e'tibor qaratish muhimdir.

Boshlang'ich sinflarda tenglama tushunchasi asta-sekinlik bilan shakllantiriladi. Dastlab o'quvchilar sonlar orasidagi tenglik va tengsizliklarni o'rganadi. Masalan, $5+3=8$ yoki $9-4=5$ kabi misollar orqali tenglik

Boshlang'ich sinflarda tenglamalar mavzusining o'qitilishi

belgisi mazmuni tushuntiriladi. Keyinchalik noma'lum son qatnashgan ifodalar kiritiladi: $x+4=9$. Bu yerda o'quvchilar noma'lum sonni topish orqali tenglikni tiklash zarurligini anglay boshlaydi. Shu tariqa tenglama tushunchasi bosqichma-bosqich shakllanadi. Tenglamalarni o'rganish davomida o'quvchilar noma'lum sonni topishning turli usullarini egallaydi. Bu jarayon ularning matematik tafakkurini rivojlantirib, sonlar o'rtasidagi bog'lanishlarni chuqurroq tushunishlariga yordam beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi tenglamani yechish jarayonida sonlar o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qiladi. Bu esa uning aqliy faoliyatini faollashtiradi va matematik qonuniyatlarni anglashiga yordam beradi.

Tenglamalarni o'qitish metodlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

Tushuntirish metodi. Mazkur metodda o'qituvchi tenglamaning mohiyatini sodda va tushunarli misollar orqali izohlaydi. Masalan, $x+6=10$ tenglamani yechish uchun o'quvchi noma'lum qo'shiluvchini topish qoidasidan foydalanadi va $x=4$ ekanligini aniqlaydi.

Ko'rgazmalilik metodi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari obrazli tafakkurga ega bo'lganligi sababli ko'rgazmali vositalardan foydalanish samarali hisoblanadi. Kartochkalar, geometrik shakllar, predmetlar va rasmlar yordamida tenglama mazmuni tushuntiriladi. Masalan, bir nechta qutichalar va sonlar tasviridan foydalanib noma'lum sonni topish topshirig'i beriladi. Bu usul mavzuni qiziqarli va tushunarli qiladi.

Muammoli ta'lim metodi. O'quvchilarni muammoli vaziyat yaratish orqali tenglamani mustaqil yechishga undash mumkin. Masalan, "Dilshodning bir nechta qalami bor edi. Unga yana 5 ta qalam berilgach, jami 12 ta qalam bo'ldi. Dilshodda avval nechta qalam bo'lgan?". Mazkur masala asosida $x+5=12$ tenglamasi tuziladi va yechiladi.

Interaktiv metodlar. Zamonaviy ta'limda quyidagi interaktiv metodlar keng qo'llaniladi: "Aqliy hujum", "Klaster", "BBB" jadvali, "Kim tez topadi?" o'yini, "Matematik estafeta", guruhlarda ishlash. Bu metodlar o'quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi hamda bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi.

Gulnora SOHIBOVA,
Kitob tumanidagi
50-maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Baxtiyor! Talabalik yillarimning unutilmas hamrohi va sirdoshi! Bormisan, omonmisan? Dashovuzlar joyindama?

Men tez-tez seni, saboqdosh do'stlarni eslab turaman. O'sha she'riyatga oshno damlar, o'ttiz ikki nafar o'g'il-qiz paxta terimi payti rutubatli quz oqshomini qaritish uchun ko'kka o'rigan gulxan atrofiga bahribayt (biz uni "bayt barak" deb ham atardik) aytishgan tunlarni, keyin davrani kengroq olib, o'yin-kulguga navbat berganimizni, guvalaklik Asadulloning tingir-tingir tor chertib, "Men sevaman, sen sevasanmi?"ni kuylashini, qaynarlik Abdulalomning to'nkirilgan pagirini pala-partish chertib, do'rildoq dovushda unga jo'rovov bo'lishga urinishini, jarqo'rg'onlik Abdusamadning oramizda "eng oliy podxod (tilyog'lamachilik)" deb tan olingan "hat-t, joningdan"lab olqishlashini, Ashurning qiyiq ko'zlarini suzib, davraga sarxush nigoh tashlagancha, arzonbaho sigaretni bosib-bosib tortib (o'ziyam bu sohada deyarli hammamizga ustozlik qilgandi), ichiga yutgan turtunni burnidan pag'a-pag'a chiqarishini, oramizda eng yoshi kichigimiz – qarshilik Zaqvining(Oloh u rahmatiga olgan bo'lsin) bir shoxaga qo'nmay qiladigan sho'xliklarini, sho'rchilik Xudoyberdining (go'ri nurga to'lsin) o'tning taqasiga mengzagan mo'ylovini o'ynatib, davraga sin solishini, chandirlik Shirinboyning (safimizdan birinchi yo'qotganimiz, oxirati obod bo'lsin) mardona rizq tushini, silliq sochlari yelkasiga yoyilgan kitoblik Sodiqling(sharifi ham g'alati edi – Markayev) nimadandir norozi po'ng'il-lashini, eng gavdasi yirigimiz – mirishkorlik qo'li gul oshpazimiz Haydar aka yakshanba kunlari damlaydigan xusha'm palovxonto'rani(darvoqe, hozir ham to'rt-beshimizning boshimiz birikkan davrada qitmir Muzaffar gapni "sen qachon osh qilib berasan"dan boshlaydi)... sog'inaman.

Ikkalamiz (biroz she'rparastligimiz bor edi, shekilli) almoiy-jalmoiy misralar qo'shib davrani qizitishga urinardik. To'g'ri, sen sho'x-shaddodroq, men esa chuvakkina jussamga nisbatan ancha vazmin va og'irtabat edim. Biz qanchalik urinmaylik Umirqul (o'sha biz singari oddiy qishloq bolasi) o'zi yozgan "Qo'shni qiz"ni qimtinibroq, qayta-qayta talablardan so'ng o'qib, qarsaklarga sazovor bo'lardi. Ammo har gal ma'sum (balki charchoq alomatidir) va ma'nodor ko'zlarini chirsillab yonayotgan gulxanga qadab, vujudga titroq va orom ato etguvchi ovozi bilan "Onajon"ni o'qigan g'uzorlik Matluba uloqni ilib ketaverardi.

Deyarli har oqshom bahribaytimiz allaqachon hammamizning ardog'imizga sazovor bo'lgan Abdulla Oripov misralari bilan boshlanib, shu shoir misralari bilan yakun topardi. O'ziyam "Onajon", "Ayo!", "O'zbekiston", "Maktub", "Birinchi muhabbatim", "Mitti yulduz"...ay-y-y, sanay-versam adog'i ko'rinnmasdi. Biri-biridan quyma bu ash'orlarning, doimo yonimdan qo'ymaydiganim – shoiming biz talaba bo'lgan yili nasb etilgan qora yumshoq jildli "Hayrat" deb nomlangan mo'jaz kitobchasi qo'lma-qo'l o'taverganidan titilib ketgandi...

Har bir bir olam ma'nolar maxxani edi bu she'rlar...

Oshna! Kiyevning "Dinamo"si Myunxenning "Bavariya"si bilan Ovrupo superkubog uchun match o'tkazgani-da yarim tun futbol ko'ramiz deb Mu-

zaffar uchalimiz sakkiz chaqirim yo'lni poyi-piyoda bosib, xo'jalik markaziga borganimizda qaysi xonadonga yaqinlashmaylik, sohiblari bizni "o'g'ri" chamalab (ehtimol, bemahal kelgan mehmondan qochib), qoziqdagi itni bo'shatgancha "olakish" berganlarini, qorong'u tun, yo'lining o'nqir-cho'nqirini ham pisand etmay, otigan o'q misol qochganlarimizni eslaysanmi? Besh-olti dona tuxum ilinjida tovuq fermasi hududini axlatdan tozalab, sarishta qilib berganimizni-chi? Eh-h, sanab sanog'iga yetib bo'lmaydi shirin va achchiq bu xotiralarning...

Qish qilichini qayrab, qip-qizil tanasi qolgan g'o'zapoyada yilt etgan oqlik ko'zga tashlanmasa-da paxta yig'im-terimini adog'i ko'rinay demasdi.

Bir yili, qalin qor yog'ib, g'o'zalar yelkasidan bosib tushgan og'ir yukdan egilib qolganida ham dalani tark etmagandik. Erta bilan qalin kiyinib, bir nafas dalaga chiqqan domlalar ko'zi uchun ikki kishi uzun arqonning ikki tomonidan ushlab, egat bo'ylab ketar, qolganlarimiz arqon tegib qori to'kilgan g'o'zalarni paypaslab, duch kelgan oqlikni etagimizga solib bo'raverardik. Aslida bularning hammasi qahri qattiq domlalar ko'zini shamg'alat etish uchun qilinadigan harakatlar edi.

Ular esa dala chetida qo'llariga kuhkuhlagancha yarim soatcha turishar, keyin bizning egatlarga sochilib ketganimizga ishonch hosil qilishgach, iliqqina(albatta biz yotadigan keng zallari emas, o'qituvchilarning pechka o'rnatilgan xonasi) dala shiyponiga qaytishar, biz ham ustozlardan qolisharmidik, nazorat ariganidan ariq va zovurlarning dala shiyponidan chiqib qaraganda ko'rinnaydigan tomoniga o'tib, gulxan yoqar, Haydar aka o'qituvchilardan yashirincha etagimizga solib qo'ygan kartoshkalarni cho'qqa ko'mib, "shohona" dasturxon tuzardik. Albatta, bu vaqtgacha oyog'i yengilroqlardan kimdir, Sodiqmi, Ne'matmi, xo'jalik markaziga borib, ikki-uch shisha, bizning davrda mashhur bo'lgan "Toshbolta oshiq" komediyasida ta'rif qilingan ordona qolgur "Sunnatilloning vinosi"dan olib kelishga ham ulgurar, keyin to shiyponda qolgan oshpazmi, choyxonachimi chaqirib ketguncha (o'qituvchilarimiz ham baribir paxta terilmasligini bilishardi shekilli) bazm-u jamshid avjiga chiqar, hammadan birinchi sarxush bo'lib qolgan Abdumanon (yaqinda u ham bandalikni bajo keltirdi, yaratgan egam rahmatiga olsin) sevimli hofizning "Ajdarga o'xshatdim soching uchini"sini xirgoyi qilishga tushar, boshqalarimiz unga jo'rlik qilar, bu paytgacha guruhimizning alohida davra qurib o'tirgan sakkiz nafar malikasi allaqachon shiyponga qaytib ketishgan bo'lardi...

Ehtimol, ushbu satrlarni o'qib, sen ham shirin va achchiq xotiralar qatini ag'darishga rag'bat topayotgandirsan. Esla, jo'ra, esla, bugun sen yashayotgan manzil qo'shni mamlakat hududida qoldi, "oltin davr"imiz o'tgan maskarlarni qalbimiz tusasa bizga oson, g'ir etib boramiz, kelaveramiz, sen esa qator mahkamalarning eshigini chertishingga, ming turli to'ralarcha munosabat chig'irig'idan o'tishingga to'g'ri keladi, shunday ekan yuragingni to'ldirgan sog'inch hissini xotiralar epkini bilan bostir, men har doim seni ko'rgim kelganida shu yo'l bilan o'zimni ovutaman.

JUMBOQ

yoxud talabalik yillaridan bir naql

* * *

Do'stim! Kecha yarim tun odatdagidek qog'ozlarga ko'milib o'tirganimda qo'l telefonim chinqirib jiringladi. Hayron qoldim, hatto it-mushukning oyog'i yig'ilgan palla, mendek bedor kimsa kim bo'ldi ekan?

Yoqinqiramay javob qaytardim: – Eshitaman. – Nabi, bu senmisan? Dovush sohibini daf'atan tanimadim, ammo uning o'zimga juda yaqin kishi ekanini sensirab qilgan murojaatidan angladim:

– Ha, menman, kechirasiz, sizni tanimayroq turibman. – Nahot tanimagan bo'lsang, men birinchi guruhboshilaringiz – Boboyor-man.

Eslingdami? O'sha, taqdir taqozosi bilan yigirma yetti yoshida oliygoh talabasi rutbasiga erishgan, sinovlar mavsumi boshlanganida kitob titishdan ortib, har birimizning yaxshi baholar olishimiz uchun yelib-yuguradigan o'zimizning Boboyor aka(aytgancha bir kiftga o'ttiz yil bir jamoada ishlab, shuning yigirma ikki yilida maktab direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari bo'lib ishlagan akamiz qarilik nafaqasiga chiqqaniga ham o'n yil to'lay deb qoldi)!

– Tanidim, aka Boboyor, taniganda qandoq, sog'lingiz qalay, ishingiz zo'rmi, nevara-chevaralar chopqillab yurishibdimi?

– Zo'r, hammasi zo'r, faqat meni keyingi paytlarda sog'inch qiynayapti.

– Sog'inch, qanday sog'inch? – so'radim tushunqiramay.

– Yosh bir joyga borib qoldi, uka, qani edi hammamiz yana bir bor yagona dasturxon atrofiga biriksak, keyin armonim qolmasdi, – ohangidan angladim. Boboyor akaning dovushida o'kinch hissi hukmronlik qilar, go'yo menga ilinsa, hamma istaklarini bir zunda muhayyo etishga qodir kuchga egadek edim.

Bildim, Boboyor aka "guruhdoshlar uchrashuvi" tashkil etishimizni istayotgandik. Ammo bunday uchrashuv tashkil etishning o'zi bo'larmidi, qaysidir yili Qarshining "eski bozor"ida qishlog'ida yetishtirilgan quruq mevalar bozorini avj oldirayotgan Abdusalom (hozir u katta odam, mahalla fuqarolar yig'ini raisi) ikkimiz barcha saboqdoshlar boshini biriktirishga urinib ko'rdik, qayerda, biz tayinlagan manzilga (to'g'ri, senga qanday xabar yetkazishning yo'lini topolmagandik), aytilgan muddat xizmat vazifasi va ro'zg'or tashvishidan ortib yigirma to'rt o'g'il boladan atigi yetti nafari keldi, haliyam guruhimiz malikalarga rahmat, ular bor-yo'g'i sakkiz qiz edi, shuniyam to'rt nafari vaqt topib davramizni to'ldirdi. To'g'ri, o'tgan yilgi uchrashuvimiz anchagina serfayz bo'ldi, bu gal davraga kelgan-

lar soni yigirmadan (bilsang oramizdan chin dunyoga ketganlar ham to'rt nafarga yetibdi) oshdi. Ancha surishtirishlardan so'ng yashash manzillarini aniqlaganimiz – Maxfirat bilan Tuhfa opa, hatto, tahsilning oxirgi bosqichida farzand ko'rib, o'qishini sirtqiga ko'chirgan Saltanat ham yetib kelishdi. Yo'l olis bo'lgani bois Abdusamad bilan Husan akaga sen kabi xabar yetkazolmagandik, faqat Xolmahmad bilan Ismoilning Chiroqchidan, Bibi-sora-yu Ne'matning Yakkabog'dan Qarshiga yo'l topolmagani hammamizning dilimizni biroz ranjitdi. Darvoqe, sen bilan boshqalarga qaraganda ancha yaqin bo'lgan Bahrom bilan aloqa qilayotgan bo'lsang, undan so'ra, uchrashuvimizdan Mamatqulning tashabbusi tufayli tasvirga olingan diskdan bir dona senga yuborsin.

Shu satrlarni qog'ozga tushirayapman-u, beixtiyor xayolga tolaman, ehtimol shu dam sen ham barmoqlaringni bukib, yil sanashga tushgandirsan, oliygoh diqqinafas saboqxonalarni tark etganimizga o'ttiz yetti yildan oshibdi. O'ttiz yetti yildirki, men xotiralar og'ushida yashayapman, ayrim voqealarni unutay desam, hushimda ham, tushimda ham tinimsiz ta'qib etaveradi. Esingdami? Ilk, talabalik rutbasiga erishgan yilimiz. O'quv yili boshlandi-yu, ertasigayoq oliygoh hovlisi biz hasharchilarni paxta terimiga olib ketishga kelgan avtobuslarga to'ldi.

Ko'ksini urushda mukofotlangan orden-medallari bilan to'ldirgan keksa o'rus tarixchi keng maydonga to'plangan biz – har birining orzulari bir olamga tatiydigan yigit va qizlar oldiga chiqib, paxta yig'im-terimida ishtirok etish, Vatan boyli-gi sanalmish paxtaning so'nggi tolasiga-cha terib olishga hissa qo'shish keksa-yu yoshning jonajon burchi ekanligi to'g'risida nutq irod qildi. Keyin har kulliyotdan bir nafar talaba so'z olib (ehtimol oldindan ularga aytadigan so'zlari o'rgatilgandir), paxta yig'im-terimida tashabbus ko'rsatib ishlash vijdon amri bo'lib qolishi kerakligi haqida balandparvoz jumllarni hijjalab aytishdi.

Shu-shu biz – o'sha yillar universitetda eng oliy maqom (kelajagi bor, ha-ha, boshqacha atash mumkin emas, chunki respublika firqa qo'mitasi birinchi rahbarining o'zi filolog bo'lgani uchun bu kulliyotni tugatganlar salgina "orqa"si bo'lsa mansab pillapoyalaridan dadil odimlashi odat tusiga kirgandir) sanalmish – tarix-filologiya kulliyoti talabalari boshqalar qatori uch-to'rt oy (yagana, chopiq uchun chiqiladigan bir yarim-ikki oyni hisoblamaganda (tavba, o'zi qachon o'qirdik), cho'l tumanining Salvador Alyenda (olis Lotin Amerikasidagi mamlakatlardan biri sobiq rahbarining bizga nima aloqasi bor edi, bilmadim) nomidagi 5-davlat xo'jaligi dalarigacha tanda quradigan bo'ldik.

Ayniqsa, birinchi kurs paxta yig'im-terimi sen va men uchun qanchalik og'ir kechganini eslaysanmi? Men esa eslayman, unutilmayman. Sen ham, men ham paxtani ilk ko'rgan, sahro odamlari edik. Bizdan qo'yni, echkini so'rashganida boshqa gap edi. Shu bois ko'p terishga qanchalik urinmaylik, negadir ishimizda unum bo'lmasdi. Bir gal guruhimizning ilg'orlaridan sanalgan qamashilik "Xo'ja" laqabli Muzaffar qiynalayotganimni ko'rib: – Men bilan yonma-yon egatga tushasan, men o'tirganda o'tirasan, paxta terganda terasan, etak bo'shatganda bo'shatasan, – dedi. Aytganlarini quloq qoqmay bajardim, tergan paxtaning cho'g'i har kungidan ko'pay tuyuldi nazarimda, lekin o'Ichovda aytarli o'zgarish sezilmadi, Muzaffarning tergani sakson, meniki esa arang o'ttiz ikki kilogramm. Hayratga tushdim. Etak bir kattalikda, egatda farq yo'q, paxtasini terib o'tgan masofamiz teng bo'lsa, nega ikkalamizning natijamiz ikki xil chiqadi?

Tag'in Muzaffarning o'zi masalani oy-dinlashedi: – Sen o'ng qo'lingni belga tirab, yakka qo'lda terarkansan, bunaqada ishda unum bo'lmaydi. Qiziq, bel zirqirab og'risa, qo'lni belga tiramasdan qayerga tirash kerak ekan? Hatto chuvakkina Qurbon, noziknihol ikki Ra'no-yu, Fazilat va Uytulalar ham terimni do'ndirishar, ammo sen bilan menga "zarbdor" bo'lish sira nasib etmasdi.

Kun bo'yi sillamiz qurib paxta tergannimiz desak, kechqurunlari domlalar-ning mo'jaz xonasida bo'ladigan "shtab"ni aytmaysanmi?! Yuqori kursda o'qiydigan "tabelchi" o'qituvchilarga yoqish uchun sodiq laychadek ming turlanib, eng kam paxta tergan saboqdoshlarini birin-sirin "shtab"ga chaqirib ketar, albatta, bu ro'yxatning boshida sen va men bo'lardik. Ba'zan esa qoloqligimiz uchun jazo sifatida fonus yorug'ida, qonxo'r pashshalarga talanib egat o'ralashga majbur etilardik. To'g'ri, biz kabi qoloqlarning safi siyrak emasdi, ammo ayrim guruhdoshlarimiz paxta terishni eplamasada, tegzina dalasiga borgan brigadamiz boshlig'i tilini topib, beda o'rish yoki dastalashga, makjajo'xori sug'orishga o'tib ketishar, brigada boshlig'i esa ularning nomiga yo'q paxtani yozdirardi. Dehqonobodlik Mamatqul bilan bog'liq sarguzasht esingdami? Bir kuni tun yarmida shiyponimiz yaqinidagi yo'ldan tarillab kelayotgan traktor gursillab ag'anaganini eshitib, ko'zimizni uyqu tark etgan besh-o'ntamiz qiziqishdan tashqariga yugurib chiqqanimizda, oy yorug'ida zaxrakash bo'ylab qochib ketayotgan traktor-chini ko'rib qoldik. Ildamroq yuguradigan kimdir uni tutib keldi. Qarasak traktorchi deganimiz qo'rquvdan zir qaashayotgan Mamatqul:

– Qarasam jonginamda traktir jonib turibdi, hech kim unga qarag'ani jo'q, astagina rulga o'tirib, skorini tartgandim, traktir uchib ketdi, gazini basgan sayin basgim kelaberdi, keyin shu, – dedi u ko'zlarini lo'q qilib.

Keyinchalik bilsak, o'qituvchilar tomonidan brigadimning iltimosiga ko'ra (albatta binoyigina tomoq "moylash" hisobiga) ko'sak chuvish agregatida ishlayotganlarga yordam berishga yuborilgan Mamatqul tun yarmida, akkumulyatori yo'qligi uchun motori o't oldirib qo'yilgan traktorni minib qochib, bizlarga o'zini ko'rsatish uchun shiyponga kelayotganida tezligi oshgan texnikani boshqarolmay qolibdi...

Xullas, odamoviligimiz tufayli o'sha mashhur kinokomediya-dagi "ko'mir tushirishga kim?", "men", "o'tin yig'ishga kim?", "men"ning ham kifitni keltirolmasdik sen va men.

To'g'ri, guruhimizga bir muddat keksalik yuki bosib, esar bo'lib qolgan, o'zimizcha "kollangdan" deb laqab qo'yib olgan pedagogika muallimi rahbarlik qilgan kunlar anchagina tinchib qolgandik. Domlaning esi shu darajada kirdi-chiqdi ediki, qaysidir birimizni hozirgina to'xtatib, ismimizni so'rab olgan bo'lsa-da, arzimagan muddatdan so'ng tag'in: – Kollangdan, kollangdan (kallangdan demoqchi), seni isming nima edi, – deb so'rayverardi.

Har kuni domlaning esarligidan foydalanib, kimindir shahar aylanib kelishga qochirib yuborar, ro'yxat o'qilib, bor-yo'q qilingan payti birinchi bo'lib nomi chiqqan qaysidir birimiz uning nomi o'qilganida ham "men" deb saf oldiga chiqar, domla esa: – Bormisan, mayli safga qo'shil, lokin paxtani yaxshi ter, kollangdan, – deyar, baribir muloqot oxirida, – darvoqe, seni isming nima edi, kollangdan? – deb so'rashni kanda etmasdi.

Domlaning tag'in bir g'alati odati bor edi, o'zgina shudring tushsa ham nam ko'tarilmasdan bizlarni egatga tushirmasdi: – Kollangdanlar, menga sizlarning sog'lingiz kerak, ustlaringiz nam bo'lsa shamollab qolasizlar, biroz dam olinglar. Kuyunchak domlaning odatini yaxshi bilganimizdan har kuni qaysidir birimiz erta turib, dalaning ma'lum qismiga suv sepib qo'yar, keyin terimga chiqish oldidan u kishini shu yerga boshlab kiraverardik. Ammo tek orada dekanatdagilar domlaning nihoyatda ko'ngilchanligi bois terim sur'ati tushib ketgani uchun uning o'rni-ga yangi o'qituvchini guruhimizga rahbar qilib yuborishdi. Biri ikkinchisidan zeri-karli va rutubatli kunlarning navbatdagisida, burnining uchigacha qorakuya surtib olgan (bo'yi darozroq saboqdoshimiz paxta terimida bizdan ham no'noqroq bo'lgani uchun ro'zg'or ishlariga qo'li kelishma-



sa-da, domlalar viloyatda birinchi rahbar bo'lib turgan qarindoshi hurmatiga uni shu ishga o'tkazib qo'yishgandi) choyxonachimiz – xorazmlik Murodbek (oxirati obod bo'lsin) kechki payt bizni xushxabar bilan qarshiladi:

– Guruhimizga yangi malim galdi, o'ziyam faylasuf ekan.

Tungi mashmashalarni kutib kelganimiz uchun sen va men sevinchdan yayrab ketdik. "Balki endi bir muddat jonimiz orom topar". Har holda faylasuf domla kishi ruhini yaxshiroq tushunishiga, u rahbarlik qilgan kunlar ozgina bo'lsa-da dam olib qolishga umid bog'lagandik.

Qayerda! Dahmaza ustiga dahmaza qo'shildi. Faylasuf domla kam paxta terganimiz uchun tengdoshlarimiz orasida zir qaqshatib izza qilgani kamdek, paxtakorlar mehnatini misol keltirgancha, uzundan uzoq nutq irod qilib me'daga tegishni kanda etmasdi:

– Bizlar olim emas, ana ular o'z ishini qiling chinakam professori, cho'lining jaziramasiy-yu garmiseliga dosh berib shunday hosil yetishtirgan kishilarni boshqacha qanday atash mumkin, ulardan ibrat olishimiz kerak...

Ehtimol, o'shanda faylasuf domlamiz dehqonlarning yer bilan tillasha olishini (axir ayrimimiz o'zimizdek zaboni bor kimsalar bilan ham munosabat o'rnatmasligimiz sir emas-ku) nazarda tutgandir, ammo...

* * *

– Tur, – yelkamdan turtayotgan qo'l, yuzimga urilayotgan nafas taftidan uyg'onib ketdim.

Bu sen eding. – Ha, nima deysan, hali tun yarim bo'lmadi, tinchgina uxla, – g'ingshiyman yoqinqiratmasdan, keyin issiq o'rinni sovutgim kelmay, belimni zirqirayotgan og'riq, badanni chimchilayotgan sovuq zo'ridan boshimni qalin ko'rpaga mahkam o'rab olaman.

– Tur-da endi oshna, ertaga yana shtab-da ko'armoqchimsan, hademay tong otadi, kechagi paxtani tashib olaylik, – deysan o'jarlik bilan ustimdagi ko'rpani tortib.

Bazo'r ko'zlarimni musht bilan ishqalab, kiprigimda saf tortgan lak-lak uyqu lashkarini haydayman. Turishdan o'zga chora yo'q. Esladim, kecha sen bilan

qoloqlikdan chiqish niyatida ayrim guruhdoshlarimiz uchun anchadan buyon urfga aylangan – paxta o'g'irligiga chiqishga ahd qilgan, ilk o'ljani qayerdan undirishni ham chamalab olgandik.

To'g'ri, bizning rejamiz ancha qaltis bo'lib, ko'zlagan marramiz yoshi yetmishning sarhadidan sakragan jahldor arab brigadimning popag'on itlari aylanib yuradigan chaylasi yonginasidagi o'qariqqa kimdir terib, to'kib qo'ygan xiylagina paxta edi.

Hammasi silliq kechayotganday, tong oqarib qolgan bo'lsa-da, bizni na chayla sohibi, na uning popag'on itlari sezganday edi. Bir payt sen kutilmaganda yer bag'irlab, baqirib qolding.

– Yot, Nabi, joningdan umiding bo'lsa yot, otib tashlaydi.

Men beixtiyor sening harakatlaringni takrorlar ekanman chayla tomonga zingil tashladim, tashladim-u, ko'z o'ngim qorong'ulashib ketdi, darg'azab brigadir qo'shog'iz miltig'i milini biz tomonga chamalab turar, bosh-oyoq qora libos kiygan ayol uning qo'llarini ushlagancha nimalaroldi deyotgandi. Hovridan tushgan brigadir chol miltig'ining milini yerga qaratdi-da, biz tomon qo'l sernab chaqirdi:

– Hoy, buyoqqa kelinglar. Qilg'ilikni qilib qo'yib, nega bez bo'lib turibsanlar!

Bizdan boshqa birov bo'lganda fursatni boy bermay shataloq otib qochishi tayin edi, ammo ikkalamiz ham negadir ilon shirlagan chumchuqdek, boshimizni solintirib, imillagancha chol tomonga yo'l oldik.

– Kiringlar chaylaga, kelinim jonlaringizga oro kirmaganda har ikkalangizni itdek otib tashlagan bo'lardim, – deydi chol ichkariga kiritib, jonimizni sug'urib oladigan alfozda.


Jismi-jonimiz qaqshab chaylaga kiramiz.

– Etiklaringni chiqarib, ko'rpachaga o'tinglar.

Odatda jahli burnining uchida turadigan brigadir chol ko'rsatayotgan mulozamatdan hayron qoldik.

Burnining uchigacha o'ralgan ro'moli orasidan ko'rinib turgan, bir juft ko'z qanchalik ma'yus bo'lmasin navqironligidan darak berib turgan ayol bir zunda dasturxon yozib, ustini qand-qurs, qaymoq, jaydari sariyog', qovurilgan go'sht bilan to'ldirdi.

(Davomi 10-betda.)



(Davomi. Boshi 8-9-betlarda.)

– Qani, tortinmay olib o‘tiringlar-chi, – dasturxonga tortilgan noz-ne‘matdan tanovul etishga chorlaydi negadir chuqur “uf-f-f” tortib mezbon, keyin tashqariga ovoz beradi:

– Kelin, bizga choy damlab ber-da, Yodgorbekni o‘qishga kuzatib yubor, sapxoz markaziga yetib borgunicha maktab boshlanib qoladi.

Yalt etib bir xonadon sohibiga, bir chaylaga kirib-chiqib turgan ayolga zingil tashladim: “Nega Yodgorbek, kelinining boshdan-oyoq azadorlarga xos libos kiyib yurishida bir sir bor shekilli, darvoqe, cholning kampiri qayerda ekan?”

– Kampir yo‘q, – dedi xonadon sohibi fikrimni uqqandek, Xudo rahmatiga olgur yakka-yu yolg‘iz farzandimizning dog‘iga dosh berolmay, o‘n yil bu-run bandalikni bajo keltirgandi. Bahor, yoz va kuz oylari shu chaylada, sovuq tushgandan keyin esa markazdagi hovlimizda faqat men, shugina kelinim va o‘n yashar nabiram yashaymiz.

Chol kelini kiritib bergan choyni shopirib, uzatadi, ikkalamiz esa “uyat – o‘limdan yomon” qabilida ko‘zimiz bilan yer suzimiz, “biz bu yerlarga nima niyatda kelgandig-u, bulardan qanday ardoq ko‘rayapmiz?”

– Bunchalik lattachaynar bo‘lmasanglar, qani, olib o‘tiringlar-chi! – deydi chol oldimizga goh kosa to‘la qaymoqni, goh lali to‘la qovurmani surib qo‘yarkan, – Hammasi o‘z xonadonimizdan chiqqan, baraka topkur kelinning qo‘li gul.

Keyin u har ikkalamizdan qayerlik ekanligimizni, ota-onalarimiz kim bo‘lib ishlashini, oilada nechanchi farzandligimizni surishtirishga tushdi, men esa tezroq mijg‘ov cholning o‘z turish-turmushidan ochgan gurungini davom ettirishini kutib betoqatlanar va nihoyat niyatim vojib bo‘lgach ancha yengil tortgandim:

– Biz ham bir darbadar insonmiz, bolalarim, asli kelib chiqishimiz o‘zimizning Kosonning Arabxonasidan, taqdirda bor ekan chorak asr Surxondaryoning Gagarinida yashadik. O‘sha yoqlarda ham brigadir bo‘lib ishlardim. “Qirq sentnerchilik harakati” ilg‘orlaridan bo‘lganim uchun eng oliy mukofotlarga sazovor bo‘lganman. O‘sha

Maskopidagi mashhur ko‘rgazmaga kim necha bor o‘zim yetishtirgan mahsulotlarni olib borganman. Sizlar meni qarib, belim bukchayganda ko‘rib turibsizlar, senlarning yoshingda yerga ursa ko‘kka sapchiydigan yigit edim. Hozir “kampirni bir qultum suv bilan yutub yuborgudek davrida, naq yuragimdan urib, Buxorodan qopga solib, olib qochganman” desam ishonasizlarmi? Shunaqa odam edi Nurmuhammad bobolaring. Hali-beri keksalikka yon berish niyatimiz yo‘q edi, onasi ikkimiz yer-u ko‘kka inonmagan Bahodirimiz kutilmaganda falokatga uchragani kampirni arshi-a‘loga olib ketdi, mening esa tizzamni bukdi. Hammasiga o‘zim aybdorman, bo‘lmasa yozda ham shamollamasin deb qo‘lini sovuq suvga urdirmaydigan Bahodirginaning oyog‘i tagiga hali o‘zini bosib ulgurmasidan baloyi azim “Jiguli”ni olib berarmidim. Xullas, o‘g‘li tug‘ilganini tuman markazida jo‘ralari bilan yuvgan juvonmard, sarxushlikda moshinani boshqarolmay, zovurga tushib ketibdi. Keyin kampir o‘tdi. Har qadami, har bir dov-daraxti ularni eslataverganidan keyin yashab turgan joylarimdan ham ko‘nglim sovidi, ayniqsa, ayriliqqa ko‘nikib ketish kelimga oson tushmadi. “Hali yoshsan, gul umringni yolg‘iz bolaga xor qilma, nabiramni o‘zim o‘stirib olaman, baxtingni top” desam ham unamadi boyaqish. “Shu bechora erini eslatuvchi manzildan boshqa yerga ko‘chsak ko‘ngli tinchib ketar” degan ilinjda Qarshi cho‘li o‘zlashtirilayotgani to‘g‘risidagi xabarni eshitishim bilan umr bo‘yi yiqqan bor dov-u daskamni arzimagan narxda pul-lab bu yerlarga bosh olib keldim. Hali sizlar olmoqchi (biz tabiatini bilmasdan hurkib yurgan kishining tanlagan iborasini qara: “o‘g‘irlamoqchi” emas, “olmoqchi”) bo‘lgan paxtani puliga darqolgani uchun emas, kun uzun chayla atrofida ivirsib, zerikkanidan kelinim tergan...

Baxtiyor! O‘sha dam seni bilmadim, ammo men o‘z-o‘zimdan, uquvsizligimdan nafratlanib ketgandim. Turmushning to‘rt mushti qaddini bukkan alomat cholgava orqavarotdan “jahldor” deb ta‘na qilib yurganimdan uyalgandim. Bilsang, shu payt cholning qistovi bilan tanovul etganlarim bo‘g‘zimda qator bo‘lgan, “bir kun tuz totgan yeringga qirq yil salom ber” maqoliga amal qilib, o‘la-o‘lgun-

JUMBOQ

yoxud talabalik yillaridan bir naql

cha chol va uning sho‘rpeshona kelini-ning duoyi-jonini qilishga o‘zimni ruhan chog‘lashga urinayotgandim.

Ey do‘st, chayladan chiqqach, brigadir chol uzoq xayrlashuv so‘ngida aytgan so‘zlar esingdami:

– Harakat qilinglar, bolalarim, harakatda barakat, hali har qanday qiyinchilikni yengib o‘tishga qodir yigitlar bo‘lib yetishasizlar. Yaratgan egam baxtingizni bersin!..

– Ota, – dedi biz yelkamizni qisib, tezroq chayladan uzoqlashish niyatida yo‘rtib ketayotgan chog‘imiz, o‘g‘lini maktabga kuzatib qaytgan kelin. – Yigitlarga ayting, paxtadan etaklariga siqqanicha olib ketishsin, mayli, har kuni olaverishsin, men uni yirtig‘imga yamoq etarmidim.

Ayt-chi, shuncha gap-so‘zlaridan so‘ng, agar qaysar chol miltig‘ini ko‘ksimizga tirab turganida ham o‘sha zormanda paxtaga qo‘l urolarmidik? Seni bilmadim, men bunday qilolmasdim.

“O‘zi nomardligimiz uchun jazolanish evaziga, shuncha ko‘rgan izzatimizning so‘roviga nima bilan javob beraman, hali dalada brigadir cholning ko‘ziga qanday qarayman”, degan o‘ylarning zalvorli yukini ko‘tarolmay yerparchin bo‘lib borayotgandim...

Tushlikkacha qo‘lim ishga bormadi. Endi men hamma narsaga befarq bo‘lib qolgan, kam paxta terganim uchun mijg‘ov faylasuf domladan gap eshitishim mumkinligi ham xayolimdan faromush bo‘lgan, fikr-u yodimni inson uchun azal va abad kuni oralig‘i bir qadam ekanligi haqidagi mubham o‘ylar qamrab olgandi. Tabelchi o‘lchovga chaqirganida hammadan keyin, istamaygina bir siqim paxta solingan etakni ko‘tarib chiqdim.

– Ha, yalqov, tag‘in uxlab-uxlab kelayapsanmi, bor sheriklaringga qo‘shil, senlarga tushlik harom.

Domlaning dashnomlari qulog‘imga kirmadi, paxtadan bo‘shagan etakni yelkamga tashlab, dalaga yo‘l oldim. Qulog‘im ostida brigadir cholning gaplari jaranglab ketgandek bo‘ldi:

– Harakat qilinglar, bolalarim, harakatda barakat...

Vujudimni qoplab olgan o‘jarlik bor alamimni chanoqdagi paxtalardan olishga, belim og‘risa-da, barmoqlarim talsa-da, teraverishga, teraverishga undardi.

Bir qarashda tushlikdan mahrum etilganlar orasida sen ham borligingni ilg‘ab qoldim. Shu payt qulog‘imga brigada boshlig‘ining:

– Domla, shu ikki yigitga ruxsat eting, bugundan ularga har kuni mening hisobimdan ellik kilodan paxta qo‘shib qo‘yavering, – degani.

Domlaning:

– Nimaning hisobiga, – deya mijg‘ovlangani.

Brigadir cholning:

– Huv-v, anuv yerdagi xirmonni sizlarnikiga qo‘shib topshiraman, ikki ton-nacha chiqadi, shuning hisobiga, – deb cho‘rt kesgani.

Keyin domlaning nomlarimizni tutib, tushlikka ruxsat etgani chalindi.

– Nabi, bu yoqqa kel, – chaqirdi izimdan ko‘kdalalik kuydi-pishdi jo‘ram Ismoil, – senga ovqat olib qo‘ydim.

Nishonlik Otamurod qo‘limdan tortib qolishga urindi. Ammo men orqaga qaytmadim, qaytolmadim. Ochig‘i qaytishni sira hazm etolmas, tizzamga engan qaltiroqni arang bostirib, tezroq dalaga singib ketishni, singiblar ketishni istardim.

Chunki shu tob orqaga burilsam kiprigimga qalqigan yoshni saqlolmasligimni, bo‘g‘zimni yirtay deb turgan hayqiriqni bostirolmay o‘kirib yig‘lab yuborishim mumkinligini ich-ichimdan his etardim...

...Baxtiyor! O‘tmish xotiralaringning eng nozik nuqtalarini eslatib yuborgan bo‘lsam, kechir. Endi hisoblab ko‘rsam, o‘sha voqeaning sodir bo‘lganiga ham qirq yildan oshibdi. Qirq besh yildirki, keksa brigadir chol va kelinining bizga ko‘rsatgan mulozamati, oldimizga yoygan dasturxonini ko‘z o‘ngimdan ketmaydi.

Elimizning oddiy, biroz do‘lvor odamlari tantiligiga tasannolar o‘qiyman. Har gal shu voqeani eslaganimda esa dilimni bir og‘riqli savol, sirini fosh etmagan jumboq titkilayveradi, titkilayveradi.

Faylasuf domla:

– Bizlar olim emas, ana ular o‘z sohasining professori, – deb nutq irod etganida nimani nazarda tutgan ekan?

Olimliknimi yoki odamiylikni? Bilmadim, bilolmadim. Lekin negadir oradan yillar o‘tib, sochga qo‘ngan qirov qalinlashavergani sayin, o‘sha sen bilgan, men bilgan “kollangdan” domlaning esarligiga ham, erinmasdan birma-bir ro‘yxat o‘qigan chog‘ida o‘zga birovning o‘rniga “men” deb saf oldiga chiqqanimizni ajrata olmaganiga ham shubham ortib borayotgani rost.

Tag‘in kim bilsin...

Abdunabi ABDIYEV

Taqriz

“MILLAT HOLINI BILAY DESANG, O‘QITUVCHIGA BOQ”



Shubhasiz, kitob tafakkurni boyitadigan, kishini o‘z-o‘zi bilan yuzlashtiradigan eng buyuk ma‘naviy manbalardan biridir. Ularning ba‘zilari voqealari bilan yodimizda qolsa, ba‘zilarini chuqur mushohadaga chorlaydigan fikrlari uchun qadrlaymiz. Jurnalist, publitsist Abdulhamid Muxtorovning “Tafakkur” nashriyotida chop etilgan “Teran so‘z” nomli kitobi ham ana shunday asarlar sirasiga kiradi. Unda jamlangan hikmatlar, hayotiy kuzatish va falsafiy mushohadalar kitobxonni mutolaa barobarida o‘yga cho‘mdiradi, go‘yo hayotiy qarashlarini tartibga solib, kitob tarzida o‘ziga tutqazganday bo‘ladi.

Mazkur kitob barcha yoshdagi o‘qirmanlarga mo‘ljallangan.

“Umr o‘taveradi...”

Ammo bizga nimalarnidir anglatadi, ko‘zimizni ochadi, saboq berib, xulosa chiqaruvchiga ham aylantiradi.

Ha, hayot shunday ulug‘ murabbiy.

To xulosa qilmagunimizcha saboq berishdan to‘xtamaydi.

Bu kabi saboqlardan, ko‘rganlarim, kechirganlarim, eshitganlarim, hatto o‘qiganlarimdan qilgan xulosalar bu.

Ularni Sizga ham ilindim”, – deydi muallif tortiq hoshiyasida.

Sahifalar oralab malimmi, olimmi, farzandmi yo o‘tana – o‘qirman borki, o‘zi uchun atalgan bitiklarga g‘arq bo‘lishi shubhasiz. Boisi, kitob “Vatanga yaxshilik sog‘ingan – odam!” “Mahkumga erk, hukmdorga samimiy so‘z – armon”, “Olimdan chiqqan johildan qo‘rq”, “Suyuqfe‘l-lilik suyuqoyoqlikdan yomon”, “Ahmoqning oqilga aylani-shiga umid qilma”, “Lafzidan qaytgan xiyonatdan qayt-maydi”, “Ota-ona istagini uqmoqqa mehr, yor xayolining tovushini eshitmoq uchun muhabbat kerak”, “O‘lganida hatto dushmanlarning ham ho‘ng-ho‘ng yig‘lashi uchun mardonavor yasha”, “Bugunning qarg‘ishi: laykka zor, ijti-

moiy tarmoqlarda xor bo‘l”, “Qanday baxtli odamlar bor?! Kallasidan foydalanmaydi”, “Hayot anglatgan haqiqatlar” kabi boblarni o‘z ichiga olib, yangi asr muammolariga oyna tutadi. Xususan, bitiklar orasida “Millat holin bilay desang, o‘qituvchiga boq”, “Darsxonadan mehmonxonani afzal ko‘rganlar beklargamas qullarga bosh bo‘ladi” kabi ko‘plab haqiqatlarning badiiy ifodasini o‘qiysiz, tafakkurga sho‘ng‘iysiz...

Kitob “Vahti kelib butun dunyo bir tilda so‘zlashiga ishonmaysizmi?” deb so‘radi ona tili haqidagi gap-larimga ensasi qotib yuradiganlardan biri.

– Ishonganda qanday, azizim, – dedim uni mamnun etib. – Shunday bo‘lishi aniq. Globallashuv, integratsiya, migratsiya hodisasining, kosmopolitizm g‘oyalarining oqibatini inkor etib bo‘lmaydi. Dunyo qachondir bir tilda so‘zlaydi. Bu shubhasiz!

– Bor ekansiz-ku, aka, – dedi u chehrasi yorishib. – Unda nega yurakni siqib har xil gaplarni gapirib yurasiz?

– Chunki, – dedim uning hafsalasini pir qilib, – o‘sha yagona til ona tilim bo‘lishini istayman.

U yuzini teskari burib mendan uzoqlashdi...” kabi yozuvchining, siz-u bizning orzularimizga-da to‘la.

“Abdulhamid siyosatshunos tadqiqotchi, jurnalistika magistri, falsafa tarixi va mantiq bakalavri, – deya fikr bildiradi pedagogika fanlari doktori, professor Qozoqboy



Yo‘ldosh. – Ehtimol, shu sabab hayotga faylasuf ko‘zi bilan qarab, undagi yaxshi-yomon hodisalarni teran tafakkur bilan izohlaydi.

U xayolan qayta-qayta pishitib jingirtob bo‘lib ketgan o‘ylarini ijtimoiy tarmoqlarda ham e‘lon qilib boradi. Bizning nazarimizda, ham falsafiy, ham muayyan darajada badiiy qiymatga ega bo‘lgan bu bitiklarni jamlab o‘quvchilar e‘tiboriga havola qilish foydali edi. Chunki chuqur ma‘noli hikmatlar ijtimoiy tarmoqlarning turli sahifalarida shunchaki sochilib yotishi fikrni uvul qilish bilan barobar”.

Sochqilarni o‘qib, professor Qozoqboy Yo‘ldosh fikrlarini ikki karra qo‘llab-quvvatlashingiz tabiiy. Umuman olganda, fikr ufqlaringizni kengaytirishni, tafakkuringizni boyitishni istasangiz, “Teran so‘z” mutolaasi navbatdagi munosib tanlovingiz bo‘la oladi.

Shahnoza YANGIBOYEVA,
“Ma‘rifat” muxbiri

Ehtirom

ONA TILI RIVOJIGA BAXSHIDA UMR

Tildan ayrilmoq – millatning o‘zligidan, o‘tmishi va kelajagidan ayrilmoq demakdir. Buyuk ma‘rifatparvar Abdulla Avloniy “Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur” deganida ming karra haq edi. Bugungi globallashuv davrida ona tilimizning softligini saqlash, nufuzini yuksaltirish va davlat tili sifatidagi mavqeyini mustahkamlash har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ana shunday sharaflari va mas‘uliyatli vazifani o‘z zimmasiga olgan, o‘zbek tilshunosligi rivojiga munosib hissa qo‘shib kelayotgan fidoyi olimlardan biri filologiya fanlari doktori, professor Inomjon Azimovdir.

Uning ko‘p yillik ilmiy-pedagogik faoliyati hamda o‘zbek tilshunosligi rivojiga qo‘shgan hissasi ilm ahlining yuksak e‘tirofiga sazovor bo‘lib kelmoqda. Inomjon Azimov o‘zining serqirra faoliyati davomida ilm-fan va ta‘limning uzviy bog‘liqligini ta‘minlashga, yoshlarning ilmiy salohiyatini rivojlantirishga katta e‘tibor qaratib kelmoqda. Uning tadqiqotlarida o‘zbek tilining dolzarb masalalari, tilning jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyati chuqur ilmiy tahlil etiladi. “Tilshunos olimning yozgan maqolasini ma‘lum bir guruh tushunishi mumkin, lekin tilning taqdiri haqida gap ketganda, barcha birddek mas‘ul bo‘lishi shart”, degan tamoyil uning hayotiy a‘moliga aylangan. Shu bois olimning ilmiy qarashlari nafaqat mutaxassislar, balki keng kitobxonlar ommasi uchun ham qimmatli.

Inomjon Azimov shunchaki nazariyotchi olim emas, balki til siyosatini amaliyotga tatbiq etishda faol ishtirok etayotgan tashabbuskor tashkilotchi. Alisher

Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi direktori sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu markaz bugun respublikamizda davlat tilining to‘liq va to‘g‘ri qo‘llanishini ta‘minlash, vazirlik, idora va tashkilotlar xodimlarining savodxonlik darajasini oshirishda eng asosiy bo‘g‘in hisoblanadi. Professor Inomjon Azimov jahon standartlari asosidagi zamonaviy boshqaruv tizimini yo‘lga qo‘yib, o‘zbek tili va adabiyoti mutaxassislarini tayyorlash hamda jamiyatda ona tili madaniyatini yuksaltirish yo‘lida munosib mehnat qilmoqda.

Haqiqiy ziyoli o‘z millatining dardi bilan yashaydigan, uning tili va madaniyatini asrab-avaylash uchun so‘zda emas, amalda kurashadigan insondir. Professor Inomjon Azimov bugun o‘zining ilmiy salohiyati, tashkilotchilik qobiliyati va samimiy publitsistikasi bilan o‘zbek tili taraqqiyotiga, milliy yuksalishimizga



munosib hissa qo‘shayotgan ana shunday chinakam fidoyilardan biridir. Zero, ona tilimizni e‘zozlash – millatni e‘zozlash demakdir. Olim o‘zining publitsistik maqolalarida, xususan, keng rezonans bergan “O‘zbek tili o‘lmaydi” nomli chiqishida ona tilimizning yashovchanligi, uning ichki imkoniyatlari nechog‘lik boy ekanligini ilmiy va hayotiy misollar bilan asoslab beradi. “Tilda millat ruhi yashaydi, millat hayotida yuz berayotgan o‘zgarishlar tilda xuddi ko‘zgudagidek aks etib turadi”, deydi Inomjon Azimov. U faqat bugungi kun muammolari bilan cheklanib qolmay, o‘zbek yozuvi va imlosi tarixini ham chuqur tadqiq etadi. Jadid bobolarimiz, xususan, Qayum Ramazon, Fitrat kabi oydinlarning imlo qoidalarini shakllantirishdagi

xizmatlarini yoritish orqali bugungi imlo bahslariga to‘g‘ri yechim topishga intiladi. Uning o‘zbek adabiy tili imlo qoidalarining shakllanish tarixiga oid asarlari bugungi kunda mutaxassislar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Olimning faoliyati faqat mamlakatimiz hududi bilan cheklanib qolgani yo‘q. U turkiy tillar integratsiyasi, qardosh xalqlar o‘rtasidagi ilmiy va madaniy aloqalarni mustahkamlashda ham faol. Masalan, uning Ozarboyjon Milliy fanlar akademiyasi (ANAS) prezidenti, akademik Iso Habibboyli bilan uchrashuvlari va unda o‘zbek-ozarboyjon tilshunosligi, ikki xalqning mushtarak madaniy merosini o‘rganish borasidagi kelishuvlari fikrimizga yaqqol dalildir. Olim xalqaro minbarlarda o‘zbek tilining nufuzini munosib himoya qilib kelmoqda.

Inomjon Azimovning sermahsul ilmiy va ijtimoiy faoliyati o‘z kasbiga sadoqat va ona tiliga bo‘lgan cheksiz muhabbatning go‘zal namunasidir. Bunday olimlar bor ekan, o‘zbek tilining qadri, jozibasi va xalqaro miqyosdagi nufuzi yuksalishda davom etishi, shubhasiz.

Ustozning fidoyiligi, ilmga sadoqati va yuksak insoniy fazilatlarini ko‘pchilik uchun ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilmoqda. Ilm-fan rivoji yo‘lidagi samarali faoliyati, yuksak ehtiromga loyiqdir. Bunday fidoyi olimlar bor ekan, milliy filologiyamizning kelajagi yanada porloq bo‘lishiga ishonchimimiz komil.

Qodirjon MO‘YDINOV,
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD)

Siyosiy sharh

ZAMIN NEGA BEZOVTA?

Venesuelada sodir bo'lgan vayronkor zilzila o'tgan kunlarimizning eng qayg'uli voqealaridan biri bo'ldi. Undan ming-minglab odamlar jabrlandi. O'sha kunlari Markaziy Osiyoda ham yer kuchli qimirlab, odamlarga sayyoramizning yagonaligi va uning omonatligi haqida yana bir bor eslatib qo'ydi. Kuchli zilzilalar davriyligiga e'tibor bergan kishi ularning ko'pincha Oy to'lgan kunlari sodir bo'lishini sezishi mumkin. Shunday kunlarda Oy bilan Quyosh go'yo sayyoramizning ikki tomonida turib, nimanidir tortishayotgandek bo'ladi. Bu xuddi Navro'z bayramida bolalar ikki guruhga bo'linib, arqon tortishganiga o'xshab ketadi. Bunda Quyosh bilan Oy sayyoramizni o'z tomonlariga batamom tortib olmasalar-da, uning bag'ridagi omonat turgan qatlamlar holatiga kuchli ta'sir o'tkazishi ilmiy jihatdan isbotlangan hodisalardir. O'zingiz o'ylab ko'ring: o'nlab mamlakatlarni, yuksak tog'larni, bepoyon sahrolarni o'z joyidan qimirlatishning o'zi bo'ladimi?! Buning uchun buyuk bir samoviy qudrat kerak bo'lishini fan allaqachon isbotlab bergan. O'rni kelganda shuni ham qayd etib o'tish kerakki, Yer sayyorasidagi hayotiy faoliyatga nafaqat Oy va Quyosh, balki Quyosh sistemasidagi barcha sayyoralarning faol ta'sir etishi ilmiy jihatdan aniq dalillangan haqiqatlardir. Aytaylik, eng yirik Yupiter sayyorasining Quyosh atrofidagi harakati Yer va Oyning samoviy siljishiga bevosita ta'sir qilib turarkan, hatto, yil fasllarining almashinish mexanizmi Yupiterning gravitatsion ta'siriga bog'liq degan ilmiy farazlar ham mavjud. Shu ma'noda, Yerdagi hayotga yulduzlarning ta'siri haqidagi kosmologik qarashlarda haqiqat bo'lsa zinhor ajablanadigan joyi yo'q. Shunda ba'zi kishilarda Oy bilan Quyoshning teng emasligi, ular qanday birdek ta'sir o'tkazishi mumkinligi haqida shubha paydo bo'lishi mumkin. E'tibor bersangiz, Olloh o'z qudrat qo'li bilan ularning osmondagi ko'rinma kattaligini bir xil qilib qo'yibdi. Bas shunday ekan, ularning Yerga nisbatan ta'sir kuchlarini ham tenglashtirib qo'rganiga qanday shubha bo'lishi mumkin?!

Kishilik jamiyati tabiatning bir bo'lagi sifatida uning uzviy davomiga o'xshaydi. Unda ham katta millatlar, kichik millatlar, katta-kichik davlatlar, odamlar borligi mutlaqo tabiiy holat. Yana shunisi ham aniqki, ularning barchasi yaratgan tomonidan "taroqning tishlaridek" teng qilib qo'yilgan. Aynan shu bois ham ular hamisha huquq va burchda "el qatori" teng bo'lishga harakat qiladi, teng bo'lishga tirishadi. Hudud jihatdan bepoyon Rossiya bilan jimitdek Vatikan yoki Monakoning o'zini teng tutishi, milliarder boydan kambag'al odamning g'ururi past emasligi ham aynan ana shundan. Dunyodagi bugungi voqealarni kuzatar ekanmiz qayerda ana shu tenglik tamoyili buzilayotgan bo'lsa o'sha joylardagi odamlar ham jisman, ham ruhan osoyish topmayotganligini sezish qiyin emas, bunda tabiat bilan jamiyatning uzviy bog'liqligi kaftdek namoyon bo'lib turibdi.

AFSONALAR JANGI

Bugungi kunlarimizning qayg'uli voqealaridan yana biri rus va ukrain xalqlari orasida davom etib kelayotgan qonli urush-

dir. Uning boshlanganiga qariyb besh yil, ayrim hisoblarga ko'ra o'n ikki yildan oshib ketgan bo'lsa-da, qirg'inbarot janglarning hali-hanuz oxiri ko'rinmayapti. Ukrainlar tinchlikka rozi bo'lib turgan bo'lsalar ham rossiyaliklar urush oloviga kundan kunga ko'proq o'tin qalamoqdalar. Oqibat uning alangasida minglab, yuz minglab odamlar jizg'anak bo'lmoqda. Taxminiy hisob-kitoblarga qaraganda, har ikki tomondan qariyb ikki millionga yaqin kishi halok bo'lgan yoki mayib-majruh bo'lib qolgan. Bedarak yo'qolgan odamlarning ham aniq hisobi yo'q. Keyingi ma'lumotlarga ko'ra, janglarda ming-minglab o'zbekistonlik qorako'zlarimiz ham qatnashayotgan emish. Sabab?!

Turlicha! Birov mo'may pul ilinjida, yana kimdir turmadan qutulish uchun, yana kimdir Rossiya fuqarosi sifatida harbiy burchini ado etmoqda ekan. Nima

SAYYORALAR SUHBATI

ham derdik, hayot har bir kishi uchun turli yo'llarni yaratib qo'yibdi, tanlash ixtiyori esa har kimning o'zida. Shunisi aniqki, o'zga davlatlar orasida bo'layotgan urushlarda ishtirok etgan O'zbekiston fuqarolari uchun respublikamiz Jinoyat kodeksida qattiq jazo choralari belgilab qo'yilgan. Aslini olganda, bu janglarda ishtirok etish uchun bizning fuqarolarimizda hech bir jiddiy sabab mavjud emas. Qolaversa, bu ikki xalq orasida ham urushishga asos bo'ladigan jiddiy omilning o'zi yo'q. Xalqlar va mamlakatlarning tenglik tamoyilidan kelib chiqadigan bo'lsak, Rossiya va Ukrainaning xalqaro hamjamiyatda huquq hamda burchlari teng. Hozir bundoq olib qarasangiz, dunyo mamlakatlari bir-biriga diametral zid bo'lgan ikki qutbda yashayotgandek. Birlari xalqaro huquq va qonunlar doirasida yashash tarafdori bo'lsa, ikkinchilari qonun va qoidalar-ni mensimaydigan davlatlardir. AQSHda Donald Tramp hokimiyat tepasiga kelgach, bu tendensiya yanada kuchaydi. Dunyodagi boshqa katta-kichik davlatlar ham: "Nega Amerika va Rossiya uchun mumkin bo'lgan narsa bizga mumkin emas ekan?" degan savolga javob izlamoqda. Bu esa o'z navbatida dunyoda boshboshdoqlikni kuchaytirib, xalqlararo tinchlik-totuvlikka katta xatar paydo qilmoqda. Yaxshi e'tibor berib qaralsa, rus va ukrain xalqlari shubhali afsonalar tevaragida o'ralashib qoldilar. Qadimiy Rusning kimga tegishli ekanligi haqidagi tarixiy bahslar shular jumlasidandir. Rus shovinist adibi Aleksandr Soljenitsinning Ukrainasiz Rossiya mavjud bo'la olmasligi, yoki urush tashabbuskori Vladimir Putinning rus hamda ukrain xalqlarining bitta xalq ekanligi haqidagi soxta nazariyalari qonli janglarning debochasi bo'ldi, desak xato qilmaymiz. Xalqaro huquq me'yorlarini nazar-pisand qilmay qo'shni mamlakatlarga bosqinchilik uyushtirish balki o'tgan asrlar uchun unchalik g'ayritabiiy holat bo'lmasligi mumkin. Ammo XXI asrda bunaqa harbiy tajovuzlar og'ir oqibatlariga olib kelishini o'z ko'zimiz bilan ko'rib turibmiz. Bu masalaning bir tomoni. Ikkinchi tomondan olib qaralsa, Rossiya zabt etgan yangi hududlarning ahvoliga maymunlar yig'laydi. Bir vaqtlar ittifoqning eng so'lim maskanlaridan biri bo'lgan Abxaziya hozir egalari o'lib ket-



gan uydek bo'lib yotibdi. Shimoliy Osetiya, Pridnestrovy, Donetsk, Zaporozhye va Nikolayev viloyatlarida ham shu ahvol. Ukrainaning Rossiya bosib olgan hududlarida birorta qishloq yoki shaharcha vayron etilmay qolmagan. Bunga kosmosdan tushirilgan fotosuratlariga qarab ishonch hosil qilish mumkin. Nisbatan barqaror hudud hisoblangan Qirim yarimoroli ham bugun urush maydoniga aylandi. Urushning qadami nafaqat Qirim, balki Moskva, Peterburg kabi markaziy shaharlarga ham yetib bordi. Rossiyaning Yevropa qismidagi barcha yirik shaharlar ukrain dronlari va raketalarining nishoniga aylanib ulgurdi.

KIM KIMNI?

Ukraina qurolli kuchlari Rossiya ichkarisidagi harbiy inshoot, korxona va strategik ahamiyat kasb etuvchi obyektlarni tizimli ravishda vayron qilayotgani asta-sekin bo'lsa-da, bosqinchi kuchlarning harbiy qudratini sezilarli darajada zaiflashtira bormoqda. Shubhasiz, Rossiya juda katta kuch va salohiyatga ega mamlakat. Uning bitmas-tuganmas boyliklari yana uzoq vaqt muvaffaqiyatli harbiy harakatlar olib borishga bemaol kifoya qiladi. Endigi holat shundayki, bu borada Ukrainaning kuch-quvvati ham anoyi emasligi ayon bo'lib bormoqda. Nega desangiz, jahonning ellikdan ziyod rivojlangan davlatlari uni qo'llab-quvvatlab turibdi. Shu tufayli bo'lsa kerak, keyingi paytlarda kuchlar nisbati tenglashib, ukrainlarning toshi og'ir bosib borayotgani yaqqol sezilmoqda. Vashingtondagi strategik va xalqaro tadqiqotlar markazi(CSIS) hisobotiga ko'ra, Ukraina qurolli kuchlari Rossiya hujumlarini qaytarishda va Qirim yarimorolini qamal qilishda sezilarli muvaffaqiyatga erishmoqda. Rossiya armiya saflaridagi yo'qotishlarning keskin o'sishi muammasiga duch kelmoqda. Urushning katta qismida yo'qotishlar nisbati Ukrainaga qaraganda 2:1 yoki 3:1 ni tashkil etgan bo'lsa, 2026-yilning birinchi yarmida 8:1 gacha yetdi. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, Rossiya tomoni janglarda har kuni 30-34 ming odam yo'qotmoqda. Tahlilchilarning qayd etishicha, yo'qotishlarning 90 foizidan ko'prog'i to'g'ridan to'g'ri janglarda emas, balki aynan dron zarbalariga to'g'ri keladi. Bu haqda Ros-

siya ommaviy axborot vositalari kundan kunga tobora tashvishli xabarlar tarqatmoqda. Hozir Ukrainada minglab dronlar ishlab chiqarilayotgan bo'lsa, kelajakda millionlab uchuvchisiz boshqariladigan turli xildagi jang vositalari yaratilishi kutilayotgan ekan. Bu bir tomondan vatan himoyachilarining jang salohiyatini kuchaytirs, ikkinchi tomondan hozir Ukraina armiyasida kuzatilayotgan shaxsiy tarkib kuchlari taqchilligiga barham beradi. Bu bilan rus armiyasining ukrainlarni holdan to'ydirib taslim qilish rejasi barbod etilishi mumkin. Ammo nima bo'lganda ham, Rossiya armiyasida katta potensial kuch borligi sir emas. Ulardagi ayrim qurollar turi hali Ukraina armiyasida mavjud emas. Ayniqsa, gipertovushli ballistik raketalar, boshqariluvchi og'ir bombalar va reaktiv dronlarga qarshi kurash ukrainlarning asosiy muammasi bo'lib turibdi. Garchand, bu borada ular ham tig'iz ish olib borishayotgan bo'lsa-da, Rossiya harbiy sanoati bilan teng darajada qurol ishlab chiqarish qobiliyatiga ega emas. Bu jabhada Ukraina g'arbning harbiy-iqtisodiy ko'magiga juda muhtoj. Yevropaliklar o'z xavfsizliklari uchun ukrain armiyasining naqadar katta ahamiyati borligini his qilgan holda qo'llaridan kelgan yordamni berishga harakat qilmoqdalar. Nima bo'lganda ham, bugun front chizig'ida vaziyat o'ta jiddiy. Bir tomondan rus armiyasi xurujini susaytirmoqchi emas, ikkinchi tomondan esa ukrainalik vatan himoyachilari ularga yon bermayapti. Bugungi kunda kim kimni yengib chiqarkin, degan javobsiz savol hammani o'ylantirmoqda. Rossiya o'zining yillar davomida to'plagan harbiy qudrati, Ukraina esa yuqori texnologiyali jang vositalariga suyanib urushmoqda. Bu jabhada ular bir-biriga sira yon bermoqchi emas. O'rtada ming-minglab navqiron yigitlar, begunoh fuqarolar halok bo'lmoqda yoki bir umr nogiron bo'lib qolmoqda. To'g'ri, bu omonsiz muhorabaga chek qo'yish uchun Ukraina tomoni bir necha marta sulh taklif qildi. Ammo Kreml buning evaziga mamlakatning katta bir qismini jangsiz topshirishni talab qilmoqda. Bunga esa ukrainaliklar rozi bo'lishmayapti. Shunday qilib, hozirgi vaqtda muzokaralar boshi berk ko'chaga kirib qoldi. "Tinchlikparvar" Tramp ham o'z boshog'riqlari ko'payib, ushbu urush o'chog'ini o'chirishdan o'zini chekkaga olmoqda. Siyosiy kuzatuvchilarning fikriga ko'ra, endi bu urush qaysidir bir tomon holdan toygunicha davom etadi. Agar boshqa biror sabab chiqib, voqealar kutilmagan tomonga burilib ketmasa...

Xudoyberdi KOMILOV,
siyosiy sharhlovchi



Muxamedjanova Lalixon Ashuraliyevnaning 09.00.02 – Ong, madaniyat va amaliyot shakllari falsafasi(Etika) ixtisosligi bo'yicha “Sharq va G'arb etikasi: madaniy xilma-xillik va axloqiy qarashlarning qiyosiy tahlili” mavzusidagi(falsafa fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar deruvchi DSc.03/2025.27.12.F.01.07 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 20-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-02-24; e-mail: info@nuu.uz

Turdiyev Mashrab Rustamovichning 14.00.02 – Morfologiya ixtisosligi bo'yicha “Tajribada taloq va timusning me'yoriy va alimantar mikroelementozdagi morfologik va morfometrik ko'rsatkichlarining qiyosiy tavsifi” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 25-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200126, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.
Tel/faks: (95) 911-00-50; e-mail: info@bsmi.uz

Axmedova Aziza Komilovnaning 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti ixtisosligi bo'yicha “Sinkler Lyuis nasrida badiiy obraz psixologizmi poetikasi” mavzusidagi(falsafa fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 22-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100173, Toshkent shahri, Kichik halqa yo'li ko'chasi, G-9A mavzesi, 21-uy.

Tel/faks: (71) 230-12-91; e-mail: uzdjt@uzswlu.uz; e-xat: uzgumyal@exat.uz

Sadulloyeva Rushana Sadullo qizining 14.00.10 – Yuqumli kasalliklar ixtisosligi bo'yicha “Endokrinologik kasalliklari mavjud Covid-19 aniqlangan bemorlarda yuqori nafas yo'llari yallig'lanish kasalliklarining klinik-epidemiologik tavsifi” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 21-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200126, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.
Tel/faks: (95) 911-00-50; e-mail: info@bsmi.uz

Abdullayev Jasurbek Abdivait o'g'lining 09.00.03 – Falsafa tarixi ixtisosligi bo'yicha “Aziziddin Nasafiy ta'limotida komil inson konsepsiyasining tasavvufiy-falsafiy tamoyillari” mavzusidagi(falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar deruvchi DSc.03/2025.27.12.F.01.07 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 20-iyul kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 246-08-96; e-mail: devonxona@nuu.uz

Xodiyeva Sitara Shoxabbos qizining 06.01.08 – O'simlikshunoslik ixtisosligi bo'yicha “Soyani ildizdan va ildizdan tashqari oziqlantirishning o'sishi va rivojlanishi hamda dukkaklarning chatnab to'kilishiga ta'siri (Qashqadaryo viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida)” mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.08/2025.27.12.Qx.03.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 18-iyul kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 170600, Andijon tumani, Kuyganyor shaharchasi, Oliygo'ho ko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (74) 224-02-82, 224-02-62;

veb-sayt: bhttp: www.andqxai.uz; e-mail: agai_info@edu.uz; e-xat: andqxai@exat.uz

Abidaxunov Dilmurod Tadjiahmedovichning 06.01.01 – Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik ixtisosligi bo'yicha “Sholini takroriy ekin sifatida yetishtirishda begona o'tlarga qarshi uyg'unlashgan kurash tizimini ishlab chiqish” mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.08/2025.27.12.Qx.03.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 18-iyul kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 170600, Andijon tumani, Kuyganyor shaharchasi, Oliygo'ho ko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (74) 224-02-82, 224-02-62;

veb-sayt: http: www.andqxai.uz; e-mail: agai_info@edu.uz; e-xat: andqxai@exat.uz

Sauganova Gaukhar Ramzeyevnaning 05.09.05 – Qurilish materiallari va buyumlari ixtisosligi bo'yicha “Yuqori energiya samaradorligiga ega bo'lgan isiqlik himoyalovchi kompozitsion qurilish materiallarini olish uchun chiqindilarni qayta ishlash texnologiyasi”(Технология переработки отходов для получения теплоизоляционных композитных строительных материалов с повышенной энергоэффективностью) mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2026.09.01.T.02.M raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 20-iyul kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100194, Toshkent shahri, Yangishahar ko'chasi, 9-uy.
Tel/faks: (55) 508-02-95; e-mail: devon@taqu.uz

Kayumov Abrorjon Anvarovichning 14.00.36 – Allergologiya va immunologiya ixtisosligi bo'yicha “Eksperimentda Saffor moyining immunomodullovchi va gepatoprotektor ta'sirini baholash” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Immunologiya va inson genomikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.27.12.Tib.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 23-iyul kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Akademik Yahyo G'ulomov ko'chasi, 74-uy.
Tel/faks: (71) 207-08-30; e-mail: immunology@immuno.uz

Shapsanova Nodira Berdikulovnaning 09.00.08 – Ma'naviy tarbiya ixtisosligi bo'yicha “Jamiyatda mafkuraviy immunitetni shakllantirish va rivojlantirishda ma'naviy-tarbiyaviy omillarning o'rni” mavzusidagi(falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.21/2025.27.12.F.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 24-iyul kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Bobur ko'chasi, 9-uy.
Tel/faks: (55) 503-41-90; e-mail: imtiuz@umail.uz

Shodiyeva Dilafruz Abduljalolovnaning 14.00.36 – Allergologiya va immunologiya hamda 14.00.10 – Yuqumli kasalliklar ixtisosliklari bo'yicha “OIV infeksiyasi rivojlanishiga immunogenetik omillarning ta'siri” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Immunologiya va inson genomikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.27.12.Tib.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 23-iyul kuni soat 12:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Akademik Yahyo G'ulomov ko'chasi, 74-uy.
Tel/faks: (71) 207-08-30; e-mail: immunology@academy.uz

Xamrakulov Adaxamjon G'ulomjonovichning 06.01.02 – Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik ixtisosligi bo'yicha “Ko'chat usulida yetishtirilgan istiqbolli sholi navlarining sug'orish tartibini ishlab chiqish(Andijon viloyati sharoitida)” mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.Qx.01.01 raqamli ilmiy kengashining 2026-yil 24-iyul kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY, PSUYAITI ko'chasi.
Tel/faks: (78) 150-62-84; 150-61-37; e-mail: paxtauz@mail.ru

Yuldashova Zebo Zuxrobovnaning 06.01.09 – O'simliklarni himoya qilish ixtisosligi bo'yicha “Alternaria solani zamburug'i populyatsiyasining biologik xususiyatlari hamda kartoshkani alternariozdan himoya qilish tizimini takomillashtirish” mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.Qx.01.01 raqamli ilmiy kengashining 2026-yil 24-iyul kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY, PSUYAITI ko'chasi.
Tel/faks: (78) 150-62-84, 150-61-37; e-mail: paxtauz@mail.ru

Baymuratova Aziza Chori qizining 14.00.12 – Tibbiy rehabilitologiya hamda 14.00.19 – Klinik radiologiya ixtisosliklari bo'yicha “Tizza bo'g'imi ichki strukturalari jarohatlari rehabilitatsiyasida ultratovush tekshiruv usullarini optimallashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.17.04 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 17-iyul kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 18-uy.
Tel/faks: (66) 233-30-34; e-mail: ilmiyprorektor@sammi.uz

Xoliqulov Eldor Baxodir o'g'lining 09.00.08 – Ma'naviy tarbiya ixtisosligi bo'yicha “Ajodlar ma'naviy merosining yoshlar kasbiy madaniyatini takomillashtirishga ta'siri” mavzusidagi(falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.21/2025.27.12.F.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 24-iyul kuni soat 16:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Bobur ko'chasi, 9-uy.
Tel/faks: (55) 503-41-90; e-mail: imtiuz@umail.uz

Rasulova Nafisa Rashidovnaning 14.00.02 – Morfologiya ixtisosligi bo'yicha “Tajribaviy kimyoterapiyadan so'ng timus va suyak ko'migidagi sitomorfologik o'zgarishlar, ularning biokorreksiyasi” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 21-iyul kuni soat 11:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200126, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.
Tel/faks: (95) 911-00-50; e-mail: info@bsmi.uz

Axmedova Nigora Erkin qizining 05.02.01 – Mashinasozlikda materialshunoslik. Quymachilik. Metallarga termik va bosim ostida ishlov berish. Qora, rangli va noyob metallar metallurgiyasi ixtisosligi bo'yicha “2-MBF chiqindilarini qayta ishlab tarkibidan temir oksidli pigment ajratib olish texnologiyasini ishlab chiqish” mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.T.17.04 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 22-iyul kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225-uy.
Tel/faks: (75) 224-02-89, 224-13-95; e-mail: kstu@kstu.uz

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti jamoasi Geologiya va muhandislik geologiyasi fakulteti “Gidrogeologiya va geodinamika” kafedrasi dotsenti, geologiya-mineralogiya fanlari bo'yicha faslafa doktori

Ma'murjon XOLMIRZAYEVning vafoti munosabati bilan yaqinlariga ta'ziya izhor etadi.



Turmush chorrahalarida

OLIS YULDUZ SHU'LASI

Shahar markazidagi ko'p qavatli, muhtasham bino. Katagina, rasmiy jihozlangan xonada 40 yoshlar atrofidagi idora rahbari Orifjon haftalik hisobotlarni ko'zdan kechirmoqda.

Eshik taqilladi. Kirishga izn berilgach, qo'sh qavatli eshik ochilib, kotiba kirib keldi va:

– Orifjon Yo'ldoshevich, sizni uydan kenja o'g'lingiz Karimjon so'rayapti, – dedi.

Orifjon kotibaga minnatdorlik bildirib, go'shakni ko'tardi.

– Assalomu alaykum, adajon, yaxshi ishlayapsizmi?

– Vaalaykum assalom! Ha, o'g'lim, tinchlikmi?

– Tinchlik, adajon, tinchlik, Salimjon akam bilan sizga eslatib qo'ymoqchi edik. Ertalab va'da bergansiz-a, – dedi Karimjon erkalangan ohangda.

– Ha, o'g'lim, va'da berganman. Yodimda, lekin eslatib qo'yganing uchun rahmat. Xotirjam bo'linglar, o'zim ham buvijoningni sog'inganman. Ishdan so'ng ularni albatta uyimizga olib boraman.

– Adajon, o'tgan kuni Olimjon amakimlarnikiga kirib buvijonimni ko'rib kelganingizni aytib, sizlarga salom deb yubordilar, degandingiz-ku, – dedi bola hayratomuz.

– To'g'ri, o'g'lim, u kuni buvijoning bilan ko'rishgandim, ammo oradan ikki kun o'tdi-ku. Sog'indim-da. Mayli, mening ishlarim ko'p. Darslaringizni tayyorlab, oyijonga qarashib, buvijoning kelishiga biror yumshoqroq, yoqimli taom tayyorlab turinglar. Va'da, va'da, o'g'lim. Buvijoningni ishdan so'ng albatta olib kelaman.

– Xo'p bo'ladi, adajon, o'zi oyijonim buvimlarning kelishlariga tandirda issiq non ham yopayaptilar, – dedi kenja va otasidan xursand bo'lib, xayrlashdi.

Go'shak qo'yilgach, Orifjon soatiga qaradi, tushlik vaqti ham bo'libdi. Go'shakni qo'lga olib kerakli raqamni tera boshladi. Qarshi tomondan go'shak ko'tarilgach:

– Assalomu alaykum, klinikami?

– Assalomu alaykum, Orifjon aka!

– Tanidingizmi, Barnoxon. Juda ziy-raksiz-da? Yaxshimisiz, omonmisiz?

– Axir ovozingizni deyarli har kuni eshitaman-ku...

– Rahmat, singlim. Domlajon bormilar?

– Professor ikki soatlar ilgari shoshilinch operatsiyaga kirib ketgan edi. Nima deb qo'yay...

– Qo'ng'iroq qilganimni aytib qo'yasiz, rahmat sizga.

Go'shak qo'yilgach, eshik astagina taqillab, kotiba kirib keldi va boshqarmadan telefonogramma berilganini, ertalab 9 da Inson huquqlari masalalari bo'yicha kengash yig'ilishida qatnashishi kerakligini aytdi.

– Yaxshi, albatta boraman, – dedi va imzo chekilgan hujjatlarni kotibaga uzatarkan, telefon jiringladi. Go'shakni ko'tardi.

– Eshitaman.

– Assalomu alaykum, akajon, charchamayapsizmi, kennoyim, jiyanlarim yaxshimi?

– Rahmat, do'xtir. O'zing yaxshi ishlayapsanmi? Oyim yaxshimi, yaxshi o'tiribdilarmi?

– Shukr, akajon, yaxshi o'tiribdilar.

– Yo'talmayaptilarmi?

– Yo'q, yo'tallari ancha qoldi. Kecha ishdan kelsam jiyanlaringiz Azimjon va Munisaxonlar bilan dutorda mashq qilishayotgan ekan. Aka-singil oyimning yonlariga o'tirib olishgan. Juda yaxshi ko'rishadi-da... Oyijonim esa zavq bilan dutorda "Munojat"ni chalardi. Jiyanlaringiz oyimning nozikkina barmoqlari harakatiga hamda mungli kuyning sehiriga asir bo'lib, entikib, tinglab o'tirishganini ko'rib, yoshligimiz esimga tushib ketdi. Eslaysizmi, akajon, oyijonim bizga ham shunday chiroyli kuylarni chalib, gohida past ovozda qandaydir mungli ashulalarni aytganlarida, ko'zlari yoshlanardi..

– E, ukajon, nimasini aytasan, baxtimizga sog' bo'lib yursinlar. O'zing bugun uyga nechada qaytasan, Olimjon?

– Kech soat 7 larda. Tinchlikmidi, akajon?

– Ha, tinchlik. Kechki payt oyijonimning oldilarida ko'rishamiz, Xudo xohlasa.

Go'shak qo'yilgach, Orifjon astagina "oyijon, eh oyijonim-a", deya ish stoli ustidagi oyna ostidagi suratlariga tikilganicha xayolga soldi.

Birinchi suratda o'rtamiyona kiyingan 5-6 yoshlar chamasi nimjongina ikki o'g'il va ularning o'rtasida yelkalari cho'kkan, yuzida charchoq, 30 yoshlarga borgan ona horg'in holda o'tirardi. Bolalar esa uning qo'llarini ushlab olgan. Bu sarg'ayib ketgan surat otasi onasini xo'rlab, bolalarni siltab, xuddi keraksiz buyumdek tashlab ketganidan bir kun oldin olingan edi.

Orifjonning ko'z o'ngida o'sha kunlar birin-ketin gavdalana boshladi. Otasi Odiljon farzandlari oldida onasini haqoratlab, behurmat qilishi, so'kinib gapirishi – hammasini eslay boshladi. Avval o'zi, so'ngra ukasi Olimjon ketma-ket yuqumli kasallik bilan og'rigani, onasining yum-yum yig'lab, dorixonama-dorixona Xudoga nola qilib yurganlari va oiladagi qiyinchiliklar avvalgidan ham ortib ketganligi va ukasi Olimjon bir kuni "Oyijon, dadam bizni tashlab ketdimi, endi qaytib kelmaydimi?", deganda onasi: "Yo'q, yo'q, bolam, sizlarga bu gaplarni kim aytdi? Adangiz yaxshi odam, albatta keladi. Faqat hozir oilamizga ko'p pul topish uchun boshqa shaharga ishlash uchun ketgan, albatta qaytadi", deb o'g'lidani ko'zlarini yashirganlari yodiga tushdi...

Suratga tikilib xayolga tolgan Orifjonning ko'zlarida yosh miltilladi. Onasining o'sha holatdagi horg'in boqishlari, uxlamay goh davlat, goh uy yumushlarini qilib, dasturxon tepasida charchagan holda mudrab qolgani ko'z oldiga keldi. U shunda ham kechalari bolalariga ertak o'qib berib, ularning mard, jasur, halol inson bo'lishlarini istar edi...

Sabrli ona sinib qolmadi. U bolalari uchun ikki barobar qanoat va bardosh bilan yashadi. Och qoldi, ammo bolalarini o'zgalar qo'lga va yo'lga qaram qilib qo'ymadi. Qishda o'zi yupunligini bildirmadi, bolalarini isitdi. Ammo bola qalbida hali ham bolalikdagi o'sha og'ir kunlar yashaydi.

Ish stoli oynasi ostida turgan bu suratlar har kuni Olimjonni o'tmishga qaytaradi. Ular nafaqat xotira, balki og'ir haqiqat edi. Olimjon yana chuqur xayolga soldi va ko'z oldida eski kinolentasidek o'sha mash'um kunlar gavdalana boshladi.

Ikki bola changli hovlida yugurib o'ynab yuribdi. Shu tobda eshik qattiq tepkidani taraqlab ochiladi. Undan har kungidek shirakayf otasi kirib keladi. Jahlda. Ona darhol: "Assalomu alaykum, adasi, yaxshi keldizmi?", deb butun vujudi qahrga botgan otaga peshvoz chiqadi. Hovlida o'ynab yurgan bolalar qo'rqib ketadi va otalariga uzuq-yuluq salom berib, tezlikda onalari yoniga borib, uni mahkam quchoqlab oladilar. Ota qo'pol ovozda "Hoy shopirri qizi, menga qara, hali ham shu yerdamisan, ertalab aytgandim-ku, men kelguncha bollaringni olib bu uydan chiqib ket, deb! Seni ham, ularingni ham yomon ko'raman! Tushundingmi?"

Bolalar onalariga yopishgancha qo'rquvdan dag-dag titrar edi. Ona javob bermaydi. U ham qo'rquvdan ikki o'g'lini mahkam ushlab olgan edi. Otasi "Nimaga jimsan?! Gapir, shopirri qizi" deb yonida turgan stolni qattiq uradi. Kenja o'g'il qo'rquvdan yig'lab yuboradi.

"O'chir chakagingni, hozir mana bu bilan...", yonida turgan ketmonni ko'rsatib, "uchchalangni ham chopib tashlayman", deb kenjani siltab, onasining quchoqidan tortib olmoqchi bo'ladi. Onasi qo'rqib, yig'i aralash "Iltimos, bolalarimga tegmang. Mayli, meni nima qilsangiz ham roziman", deb yolvoradi erining juda ham bo'rtib, xunuklashib ketgan yuzlariga iltijoli tikilib. Shunda otasi onasining sochidan burab, tepadi va bolalar yig'lab onalariga yopishib oladilar.

Otasi esa "e, senlarni...", deb so'kinib uyga kirib ketadi va uxlab qoladi.

Yarim tun. Butun borliq uyquda. Bolalar onalarini ikki yonidan quchoqlab, qo'rquv bilan ayvonda uxlab qolgan. Ona esa uyg'oq. U "Oллоhim, o'zing sabr ber, bolalarimning otasiga ham insof bergin" deb Yaratganga iltijo qiladi va ko'zyoshlari bolalarga tomchilamasligi uchun boshini chetga buradi.

Tong otganda bolalar hovlidagi ovozdan uyg'onib ketishadi.

Ota sumkasini olib, eshik tomon ketyapti. Onasi esa unga ergashib "Otas, bolalaringizni tashlab ketmang" deb yolvoradi. Ota esa to'xtamasdan, eshikni qattiq yopib, chiqib ketadi. Mana shunga ham 30 yildan oshibdi, hali-hanuz undan darak yo'q.

Orifjon chuqur xo'rsinib, o'rnidan turdi. Soatiga qaradi, tushlik vaqti ham tugashiga 15 daqiqa qolibdi. Cho'ntagidan ro'molchasini olib, ko'zlaridan sizgan yoshlarni artdi. Yuzlarini yuvdi. Beixtiyor "onajonim-a", deya ikkinchi suratga tikildi. Unda oppoq ro'molli 65 yoshlar chamasidagi Muhayyo aya endi hayotidan mamnun chehrada xayol surib, uzoq-uzoqlarga tikilib o'tirardi. Uning bu nurli chehrasidan faqatgina shukronalikni o'qish mumkin edi. Shunda Orifjon ovozi chiqarib, "Agar men shu darajaga yetgan bo'lsam qahrli otamning emas, balki sabr-qanoat bilan umr kechirgan onajonim tufayli yetdim", deya yana kundalik yumushlari bilan band bo'ldi.

Ish vaqti tugagach, u ko'p qavatli bino eshigi oldidagi qo'riqchilar bilan xayrlashib, tashqariga chiqdi va haydovchiga "Professorlar shaharchasi"ga, ukasining uyiga olib borishini aytdi.

Mashina aytilgan manzilga yetgach, orqadan ikkinchi mashina ham kelib to'xtadi. Undan Olimjon tushdi. Akauka quchoqlashib ko'rishdilar va Olimjon akasini qo'ltiqlab olib, hovli tomon boshladi. Ular ta'mirlangan, chiroyli hovliga kirdilar. Olimjon:

– Onasi, Hafiza, qayerdasan, akam keldilar, – dedi xursandchiligini yashirolmay.

Chekkadagi uydan avval "Orifjon amakim keldilar, amakijon keldilar", deya Azimjon va Muxlisaxonlar chopib kelib, salomlashib, amakisini quchoqlab olishdi. Shu vaqt oshxonadan fartuk taqib olgan Olimjonning turmush o'rtog'i Hafizaxon chiqib kelib, ular bilan so'rashdi va Muhayyo aya o'tirgan xona tomon boshladi. Kattagina xona. Hammayoq saranjom-sarishta. Xontaxta usti chiroyli qilib bezatilib, yupqagina to'r dasturxon yopib qo'yilgan. Divanda esa oppoq ro'moli o'ziga yarashib turgan, ko'zoynak taqib olgan farishtamonand Muhayyo aya Qur'oni karimni o'qib o'tirardi.

– Assalomu alaykum, oyijon, – deb astagina salom bergan Orifjonning ovozi Muhayyo ayani shoshirib qo'ydi.

– Voy, Orifjon bolam, jonim bolam, ko'z o'ngimdan o'tib turuvding-a, – deya ona o'tirgan joyidan tura boshladi.

– Qimirlamang, qimirlamang, onajon, o'tiravering, o'zim kelyapman-ku oldingizga, – deb u Muhayyo ayani o'tirgan joyida astagina quchoqlab, yuzlarini yuzlariga surdi, oyijon, sog'indim-a, deya onaning sog'inchli ko'zlariga tikildi... Va qo'llarini ushlab, "Zerikmayapsizmi, oyijon, yo'talingiz qoldimi, mana bugun, Xudoga shukr, ko'rinishingiz ancha yaxshi", deya o'tirgan joyiga o'rnasha olmagandek, cho'kkalab onasining poyiga o'tirdi va bolaligidagidek uning tizzalariga bosh qo'ydi. – Oyijon sog'indim-a, bugun ukamdan izn so'rab roziligingiz bilan sizni uyga olib ketaman.

– E, nima deyapsiz, akajon, o'zi oyimlani yaqindagina siznikidan olib keldim-ku, – deya Olimjon onasiga salom berib, onasining poyiga o'tirib, tizasiga boshini qo'ydi.

“...Vasbiru innalloha ma’ssobirin” Ya’ni: SABR qilinglar, haqiqatda Alloh sabr qiluvchilar bilan birgadir.

(Anfol surasining 46-oyati)



Bu gapga Olimjonning ayoli Hafizaxon qo’shildi:

– Oyijon, kyetmayman deng, axir nevaralaringiz xarxashasi bilan o’g’lingiz sizni olib kelganlariga hali bir hafta ham bo’lmadi-ku.

– E, kelin, rahmat sizgayam, bizning uydagilar ham tayinlab qolishganda, – deya kelinning gapini bo’ldi Orifjon.

– Mayli, akajon, akamsiz, mendan izn so’rayapsiz, yo’q deya olmayman sizga, ammo oyijonim yana ikki kun biz bilan birga bo’lsinlar, so’ng ertalab o’zim olib borib qo’yaman.

Shunda bolalarining suhbatlarini mehr bilan kuzatib o’tirgan Muhayyo aya: “Hay-hay, bolalarim, avval fotiha o’qinglar”, deya duoga qo’lini ochdi va o’tganlarni eslab, farzandlari, kelinlari, nabiralari haqqiga duo qildi. So’ng boshidagi ro’molini tuzatib oldi-da, miyig’ida kulib dedi:

– Orifjon bolam, qo’yaqol endi. Men yaxshi o’tiribman. Kelinim Hafizaxon baraka topsin, ovsiniga o’xshab shirin taomlar pishirib beryapti. Nevaralarim bilan suhbatlashib zerikmayapman. Kel endi, qo’yaqol. O’zing shu yerga ularni olib kelgin, bolam. Men ham ularni sog’indim.

– To’g’ri, oyijon, lekin birinchidan, buni men ularga tushuntira olmayman, ikkinchidan, keling endi, yo’q demang, bizning uyga ham farishta kirsin-da. Xo’p deng, oyijon. Sizni hammalari sog’inishgan, dedim-ku. Do’xtir, siz ham rozi bo’ling endi, – dedi Orifjon ukasiga yuzlanib.

Shunda Muhayyo aya o’g’illarining boshini silar ekan, o’tgan kunlarni esladi. Beixtiyor ko’zlari namlandi. Ortda qolgan mash’um, mungli kunlar birin-ketin magnit lentasidek ko’z o’ngidan o’tdi. Ularning bolalıkları, ro’zg’ordagi qiyinchiliklar, yolg’iz holda turli gap-so’zlarga qaramay, ne-ne azoblarga dosh berib boqqanlari, ular bilan birgalikda dars tayyorlab, hamma-hammasiga chidaganlari, ammo ba’zida o’g’illarining “Oyijon, adam nega kelmaydi?” degan gaplariga javob topa olmay, ich-chidan ezilganlari, gohida kechalari bilan yig’lab chiqqanlari birin-ketin ko’z o’ngidan o’ta boshladi. Shunday bo’lsa-da, u farzandlarining hayotda o’z o’rnilarini topishi uchun bor kuch, imkoniyatlarini ishga soldi. Kunlar ketidan kunlar o’tib, Orifjon iqtisodiy bilim asoslari, jamiyatshunoslik, huquqshunoslik fanlaridan olimpiadada g’olib bo’lib, yurist bo’lishga va onasi kabi ezilgan kishilar huquqlarini hi-

moya qilishga ahd qildi. Olimjon esa matematika, kimyo, biologiya fanlaridan alohida iqtidorga ega bo’ldi. Mana hozir Orifjon huquqshunoslik fanlari doktori, respublika fanining yirik arbobi. Olimjon esa respublika tibbiyotining yirik olimi. Ayaning niyatlari amalga oshdi. Qilgan duolari bugun mustajob bo’ldi. Ko’rgan qiyinchiliklari rohatga aylandi.

Muhayyo aya beixtiyor ko’zidan sizib tushayotgan yosh bilan ular holidan xabar olib, yordam berib turuvchi rahmatli akasining so’zlarini esladi: “Eh, singiljonim-a, Ibn Moja rivoyat qilishlaricha, “Akrim-u avlodakum va ahsip-u odobahum, inna avlodakum Hadyyatun lakum”. Ya’ni, bolalaringizni hurmat qilinglar. Yaxshi odob beringlar, zero bolalaringiz sizlarga hadyadirlar”. Singilginam, sen bir ko’z bilan qanchadan-qancha qiyinchiliklar evaziga bu ikki qorako’zni halollik bilan tarbiyalading. Hecham o’ylama, siqilmagin. Inshoolloh, hali bu bolalar shunday yetuk insonlar bo’lib yetishsinlarki, Xudo xohlasa, ko’rmaganlaringni ulardan ko’rasan. Mehnatlaring rohatga aylanadi. Ular seni boshlarida emas, kipriklarida ko’tarib yurishadi, shunda meni eslarsan. Nega kipriklarida, deysanmi? Zero, boshlarida ko’tarsalar sening qay holatda ekaningni kuzata olmaydilar-da. Kipriklarida bo’lsa, doimo ko’z o’ngilarida seni beg’ubor saqlaydilar” degan edi.

Shu vaqt to’satdan aya ovoz chiqarib: “Ollohim, doimo qiynalgan vaqtlarimda menga yolg’iz pushtipanohim bo’lgansan, o’zingga behisob shukr. Shu bolalarimni omon saqlaganingga, ko’rsatgan kuningga behisob shukr. O’zingga hamd bo’lsin” deya ko’zida yosh bilan qaraganida ikki professor uning tizzalariga bosh qo’yib, qo’llarini silardi. Ularning orqasida esa Hafiza kelin, nabiralari havas bilan tikilib turardilar.

– Ha, Ollohnin shukr qilsang so’raganingni beraman, sabr qilsang sen bilan birga bo’laman, degan va’dasi shu ekan-da, bolam, – dedi Muhayyo aya ko’zyoshlarini artib. So’ngra o’g’illarining boshlarini silab: “Sizlarni bergan Xudoyimdan aylanay, mingdan-ming roziman, bolalarim”, dedi.

Ufqda miltirab turgan umid yulduzi mana shunday beg’ubor porlayversin! Oxir-oqibat barchamizga mana shunday benazir baxt ato etsin!

Rahmatulla KARIMOV,
O’zbekiston Xalq o’qituvchisi

Hikoya

KUCHUKCHA VA UCH DOLLAR PUL

Mark Tven

Men hammavaqt odam halol yashashi kerak, deb ishonib kelganman. Doimo bitta gapni takrorlardim: “Hech qachon o’zing ter to’kib topmagan nonni og’zingga solmagin”. Hozir sizga butun umrim mobaynida nechog’lik halol yashaganimni isbotlab beruvchi bir hikoyani aytib bermogchiman.

Bir-ikki kun ilgari yaqin do’stimning uyida Mayls ismli general bilan uchrashib qoldik. General Mayls tengi yo’q odam ekan, u bilan tezda til topishib oldik.

– Siz mabodo 1867-yili Vashingtonda yashamaganmisiz? – deya dabdurustdan so’rab qoldi general.

– Ha, yashaganman, – deb javob berdim men.

– Buni qarang-a, o’shandan beri hech ko’rishga olmadikmi? – dedi general afsuslanib.

– General, – deya uning gapini bo’ldim. – O’shandan keyin biz ko’rishga olmasdik. Siz o’sha paytdayam allaqachon katta general bo’lganingizni, mening esa hali nomi chiqmagan va kitoblariniyam hech kim o’qimaydigan bechoragina yozuvchi bo’lganimni unutgan ko’rinasiz. Siz meni eslay ololmayasiz, deb o’ylayman, lekin biz o’sha vaqti Vashingtonda bir martagina uchrashib qolgandik.

O’sha uchrashuvni hozirgidek yaxshi eslayman. Unda men rosa g’arib yashardim, hatto nonga ham tez-tez pul topmay qiynalardim. Bir do’stim bor edi. U ham mendan qolishmaydigan kambag’al yozuvchi edi. Birga yashardik. Hamma ishni birgalashib bajarardik: ishlardik, kitob o’qirdik, birgalikda sayr qilardik. Qornimiz och qolganida ham ikkalamiz barobar och bo’lardik. Bir marta uch dollar pulga rosayam zoriqib qoldik. Nima uchun aynan uch dollarga muhtoj bo’lganimizni hozir eslay olmayman-u, o’sha pulni kechgacha topishimiz zarur bo’lgani yodimda qolgan.

– Biz darhol uch dollar topishimiz shart, – dedim do’stinga. – Men bu pulni topishga harakat qilaman, lekin sen ham quruq o’tirma.

Uydan chiqib ketganim bilan qayerga borib, qanday qilib uch dollar topa olishimni bilmay boshim garang edi. Bir soatcha Vashington ko’chalari bo’ylab sandiroqlab yura-yura, axiyr tinka-madorim quridi. Nihoyat, bir katta mehmonxona oldiga keldim. Ichkariga kirib, biroz nafasimni rostdlab olay deb xayol qildim o’zimcha.

Mehmonxona zaliga kirib, divanga o’tirdim. To jajjigina, yoqimtoy bir kuchukcha zalda paydo bo’lib qolguncha o’sha yerda o’tiraverdim. Kuchukcha nimanidir qidirib yurardi. Ha, chindanam g’aroyib kuchuk ekan, deya xayolimdanda o’tkazsam-da, biroq qo’limdan hech nima kelmasdi, oxiri uni yonimga chaqirib, birga o’ynay boshladim.

Notanish bir erkak mehmonxona-ga kirib kelganida men haliyam it bilan o’ynab o’tirardim. Boyagi erkakning egnidagi ko’rkamgina formasidan darhol uning general Mayls ekanligini fahmladim. Ilgaridan uni gazetalardagi suratlari orqali yaxshi tanirdim.

– Voajab! Qanday chiroyli kuchukcha ekan-a! – deya hayratlandi u. – Siznikimi?

Endi javob aytish uchun og’iz juftlagan edim:

– Kuchugingizni sotmaysizmi? – deb so’rab qoldi u.

– Uch dollar, – deb yubordim bexosdan.

– Uch dollar? – deya ajablendi general. – Judayam arzon-ku. Men sizga kuchugingiz evaziga 50 dollar beraman.

– Yo’q, yo’q, kerak emas. Atigi uch dollar kifoya qiladi, janob.

– Mayli, nimayam derdim. Kuchuk sizniki. Modomiki faqat uch dollargina istar ekansiz, kamina itingizni jon-jon deb sotib olaman.

General Mayls menga uch dollar berdi-da, itni olib, xonasiga chiqib ketdi. Oradan o’n daqiqa o’tar-o’tmas bir qariya zalga halloslagancha yugurib kirdi. U zal uzra zirillab ko’z yugurtira boshladi. Cholning nimadir qidirayotganini tushundim.

– Aftidan, bir kuchukchani qidirayotgan ko’rinasiz, janob? – deya iltifot qildim.

– O, ha! Uni ko’rdingizmi? – deb so’radi qariya suyunib ketib.

– Itingiz atigi besh daqiqa avval shu yerda edi, uning bir erkak bilan ketganiga ko’zim tushganday bo’luvdi, – dedim men shosha-pisha. – Agar yo’q demasangiz, uni topishda sizga ko’maklashib yuboraman.

Qariya xursand bo’lib ketdi va unga yordamlashishimni iltimos qildi.

– Sizga yordamim tegsa, boshim osmonga yetardi, biroq bu hol andak vaqtimni o’g’irlaydi-da, shunga...

– Ketgan vaqtingiz hisobini o’zim to’layman, – dedi qariya jon holatda. – Qancha istaysiz?

– Uch dollar, – deb hozirjavoblik bilan javob berdim.

– Uch dollar, – xuddi general kabi ajablendi qariya ham. – Biroq bilasizmi, mening itim bebaho kuchuk edi. Agar uni menga topib bersangiz, sizga o’n dollar ham to’lashga roziman.

– Yo’q, janob, men faqat uch dollargina istayman, xolos, undan ortiq bir sent ham kerak emas, – deya hotamtoylik qildim men.

Shundan so’ng men to’ppa-to’g’ri general Mayls xonasiga ko’tarildim. General yangi mehmoni bilan o’ynab o’tirgan ekan.

– Itni qaytarib olgani keldim, – dedim qat’iy.

– Lekin endi bu it sizniki emas. Uni men sotib oldim. Buning evaziga sizga uch dollar pul ham berdim, – deya hayron qoldi general.

– Pulingizni qaytarib beraman, lekin itni olib ketishim zarur, – deb oyoq tirab turib oldim.

– Ammo siz kuchukni menga pullab bo’ldingiz, u endi mening itim.

– Afsuski, uni sizga sota olmas ekanman, janob, negaki u meniki emas edi.

– Bunisi bilan nima ishim bor. Siz kuchukni uch dollarga menga sotib bo’lgansiz.

– Buni qarang-a, it o’zimizniki bo’lmasa, uni sizga qanday qilib sotib yuboraman? Siz mendan kuchuk uchun necha pul istaysiz, deb so’radingiz, men esa uch dollarga zoriqib turganimni aytdim, bo’lgan gap shu, xolos. Lekin sira-sira it meniki, degan gapni og’zimga ham olmadim.

General Maylsning tepa sochi tikka bo’ldi.

– Bergan uch dollarimni cho’zib qo’ying-da, itingizni olib ketavering, – deb baqirdi u.

Kuchukchani o’z egasiga olib boranimda, boyaqishning boshi ko’kka yetdi, quvonchi terisiga sig’may, va’da qilgan uch dollarni qo’limga tutqazdi. Mening ham ko’nglim joyiga tushgandi, zero mana endi peshona terim bilan ishlab topgan uch dollar pulga ega bo’lgandim.

Ana endi siz nima sababdan mening halollik borasidagi aytgan so’zlarimni anglab yetgandirsiz, zero oshing halol bo’lsa ko’chada ichgin, deydi, odam hech qachon beli og’rib topmagan nonni og’ziga olmasligi joiz.

Ingliz tilidan
Qandilat YUSUPOVA
tarjimasi.



Dolzarb 90 kun

O'QUVCHILARIMIZ "YASHIL CHIROQ" DA

O'quvchilarning yozgi ta'tilini mazmunli o'tkazish maqsadida "Dolzarb 90 kun" loyihasi turli mavzularda tadbir, ko'rik-tanlov va musobaqalar tashkil etish orqali respublikadagi barcha maktablarni qamrab olgan.

Jumladan, Ichki ishlar vazirligining Yo'l harakati xavfsizligi xizmati hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamkorligida "Yashil chiroq" respublika musobaqasi e'lon qilingach, unda Buloqboshi tumanidagi 13-maktabning bir guruh o'quvchilari ishtirok etishdi. Tuman va viloyat bosqichlarida faxrli birinchi o'rinni egallab, musobaqaning respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritishdi.

– Aytish kerakki, o'quvchilarimiz besh yildan buyon "Yashil chiroq" musobaqalarida qatnashib kelishadi, – deydi maktab direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari O'g'iloy Yoqubova. – 7-8-sinf o'quvchilari Baxtiyor Qodiraliyev, Abbas Adahamov, Olchinbek Mahmudov, Omina To'liqjonova, Nilufar Tojidinova va Ziyoda Ubaydullayevlar musobaqaning 15 ta shartiga puxta tayyorgarlik ko'rishdi. Ishtirokchilar shartlar orasida ixtirochilik, safda yurish, maketlar tayyorlash kabi yo'nalishlarda bor iste'dodlarini namoyon etib, g'oliblikni qo'lga kiritishdi.

Tez orada jamoa Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida joylashgan "Semurg" o'quvchilar yozgi oromgohida bo'lib o'tadigan "Yashil chiroq" musobaqasi respublika bosqichida ishtirok etadi.

"Yashil chiroq" musobaqasi
O'g'il-qizni chorlar qoshiga,
Jam bo'lishgan do'stlar barchasi,
G'olib kiyar tojni boshiga.



Safda mag'rur yuribmiz biz ham,
Andijondan kelib aslida,
Libosimiz yarashgan biram,
Va sodiqmiz Bobur nasliga...

Umida EGAMBERDIYEVA,
O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi

P.S. "O'zgidromet" ma'lumotiga ko'ra, boshlangan haftada harorat 41–43 darajagacha, shimol, janub va cho'l hududlarida esa 44–46 darajagacha ko'tarilishi aytilmoqda. Ushbu vaziyatda ehtiyohtorlik choralarini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi ko'rsatmasiga binoan, 13-iyuldan 1-avgustga qadar umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etilgan sog'lomlashtirish maydonchalari, shuningdek, Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tkaziladigan tadbirlarni hamda maktablardagi "Dolzarb 90 kun" tadbirlari doirasida rejalashtirilgan turli loyihalarni amalga oshirish vaqtincha to'xtatildi.



Odob – ruhning libosi.

Muallimi kamsitilgan yurtning kelajagi yo'q

Ziyolilar millatchi bo'lmasliklari kerak. Zero, nur, ziyo, ilm millat tanlamaydi.

She'riyat, umuman, adabiyotda badiiylilik me'yordan oshsa – jimjimadorlik, kamaysa, nasihatbozlikka aylanib qoladi.

Gap odamda emas, odamiylikda.

Ilm o'rganish qiyin, amal qilish undan ham qiyin.

Ijod yolg'izlikni yoqtiradi.

Muallimi
kamsitilgan yurtning
kelajagi yo'q

Hamdardlik ikki xil bo'ladi: birinchisi – shunchaki, so'z bilan yupatish, ikkinchisi – qo'lingdan kelguncha suyash.

Kishi Xudodan qanchalik uzoqlashsa, o'limdan shunchalik qattiq qo'rqadi.

Mendan muvaffaqiyat siri haqida so'rashadi. Har bir ishni o'zing uchun qilgandek bajar. Choy damlasang ham, uy qursang ham, kitob yozsang ham, ta'lim bersang yoki bemorlarni davolasang ham o'zing uchun, bolalaring uchun qilgandek bajar. Muvaffaqiyat eshigini ochuvchi yagona kalit – shu.

Gap kishining kim bo'lishida emas, qanday bo'lishida. Masalan, Bilol qora qul edi, ammo uning ezgu nomi asrlardan asrlarga o'tib yashab kelmoqda. Fir'avn, garchand podshoh esa-da, abadiy la'nat timsoli bo'lib qoldi.

Suv po'latni toblab mustahkamlaydi, kesakni esa eritib yemirib tashlaydi.

Siyosat bu – imkoniyatlar imkoniyati demakdir.

Axloq bo'lmagan joyda qonun ojiz.

Mas'uliyatli odamlar eng yaxshi odamlardir.

Agar huquq kuchi bo'lmasa, kuch huquqqa aylanadi.

Vinoni eshak kashf etgan deyishadi. Ammo uni eshak emas, odamlar ichadi.

Har qanday inqilob – tezlashtirilgan vaqt demakdir.

Vaqtida aytilgan haqiqat quroldan kuchli.

O'nqir-cho'nqir bo'lsa ham o'z yo'lingdan yur.

Xudoyberdi KOMILOV

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,
O'zbekiston oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149 150. V-6158. Tiraji 6200.

Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan.
Qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

Tel/faks: (55) 512-01-50



"Ma'rifat"dan
materiallarni ko'chirib
bosish tahririyat
ruxsati bilan amalga
oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqриз
qilinmaydi va mual-
lifga qaytarilmaydi.

Mobil ilovani
yuklab olish uchun
ushbu QR-kodni
skanerlang:

(t) – tijorat belgisi.



Dizayner: Malohat Toshova.
Navbatchi muharrir: Faxriddin Rahimov.
Navbatchi: Bobomurod Xudoyberdiyev.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

MANZILIMIZ:
100099, Toshkent shahri,
Darvozakent ko'chasi, 60-uy.
Veb-sayt: www.marifat.uz

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa
ijodiy uyida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri,
Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.